

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“INFORMATIKA VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI”**

yo‘nalishi

**“AXBOROTLASHTIRISH VA
KUTUBXONASHUNOSLIK”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-U SLUBIY MAJMU A

TOSHKENT - 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMYIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



**“AXBOROTLASHTIRISH VA
KUTUBXONASHUNOSLIK” moduli
bo'yicha**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA



TOHKEHT - 2016

Mazkur o`quv-uslubiy majmua Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining
2016 yil 6 apreldagi 137-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv reja va
dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TATU, “Axborot-kutubxona tizimlari”
kafedra professori, t.f.d. M.A.Raxmatullayev

TATU, “Axborot-kutubxona tizimlari”
kafedra katta o`qituvchisi S.R.Arakelov

TATU, “Informatika asoslari”
kafedra assistenti O.O.Ishniyazov

Taqrizchi: TATU, AKT bo`yicha maslahatchi prorektori,
Janubiy Koreyalik mutaxassis Li Chul Su

O`quv-uslubiy majmua Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2016 yil 28 apreldagi 8(658)-sonli bayonnoma)

PEER REVIEW

TO THE EDUCATION PROGRAM FOR THE COURSE OF RETRAINING PEDAGOGUE CADRES OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS IN THE DIRECTION OF “INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES”

The following program has been concluded according to the Presidential Decree №4732 adopted on 12th of June, 2015, “on measures for further enhancement of the system of retraining and improving qualification of executives and pedagogic cadres of higher educational institutions”, and is aimed to retrain cadres with modern requirements, to enhance the content of the process of retraining as well as to continually rise professional competence of pedagogic cadres in higher educational institutions.

The content of the program includes basics of regulatory-legal framework and legal norms, advanced learning technologies and pedagogical skills, the application of information and communication technologies in educational process, practical foreign languages, basics of structural analysis and decision-making, scientific and applied research on the basis of specific subjects, technological progress and the latest developments in modern methods of organizing the educational process, teachers' professional competence and creativity, global Internet network, acquiring new ability and skills on mastering ways of distance teaching and formation of e-learning environment.

The topics mentioned in the program are formed on retraining pedagogues and improving qualification in the field of education, general requirements for the quality and preparation as well as the syllabus. With this, teachers of higher education institutions will be provided with competencies of professional skills, improving continual scientific activity, organizing educational-behavioral process and structural analysis of managing, as well as optimal decision-making in pedagogic situations by having them acquire modern education and innovation technologies on specialty, effective usage of advanced foreign experience, implementation of information communication technologies to teaching process, level of intensive learning of foreign languages.

In the content of the program prospects for the development of computer science and information technologies as well as reforms and foreign experience in the field of information and communication technologies in the Republic of Uzbekistan have been taken into consideration and actual topics have been added.

As the education program is useful for learners in the direction of “Informatics and information technologies” it totally matches with the requirements of the course of teacher training and retraining and it is expedient to be used in education process.

Vice rector of ICT, TUIT



Shul So'z ETTI

**“ИНФОРМАТИКА ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ”
ЙЎНАЛИШИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ПЕДАГОГ
КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ
КУРСИ УЧУН ТАЙЁРЛАНГАН ЎҚУВ ДАСТУРИГА**

ТАҚРИЗ

Ушбу дастур Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4732-сон Фармонидаги устувор йўналишлар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, у замонавий талаблар асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касбий компетентлигини мунтазам ошириб боришни мақсад қилади.

Дастур мазмуни олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари ва қонунчилик нормалари, илғор таълим технологиялари ва педагогик маҳорат, таълим жараёнларида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш, амалий хорижий тил, тизимли таҳлил ва қарор қабул қилиш асослари, махсус фанлар негизида илмий ва амалий тадқиқотлар, технологик тараққиёт ва ўқув жараёнини ташкил этишнинг замонавий услублари бўйича сўнгги ютуқлар, педагогнинг касбий компетентлиги ва креативлиги, глобал Интернет тармоғи, масофадан ўқитиш усуллари ва Олий таълим муассасаларида электрон-таълим муҳитини шакллантиришни ўзлаштириш бўйича янги билим, кўникма ва малакаларини эгаллашни назарда тутди.

Дастур доирасида берилаётган мавзулар таълим соҳаси бўйича педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш мазмуни, сифати ва уларнинг тайёргарлигига қўйиладиган умумий малака талаблари ва ўқув режалари асосида шакллантирилган бўлиб, бу орқали олий таълим муассасалари педагог кадрларининг соҳага оид замонавий таълим ва инновация технологиялари, илғор хорижий тажрибалардан самарали фойдаланиш, ахборот-коммуникация технологияларини ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш, чет тилларини интенсив ўзлаштириш даражасини ошириш ҳисобига уларнинг касбий маҳоратини, илмий фаолиятини мунтазам юксалтириш, олий таълим муассасаларида ўқув-тарбия жараёнларини ташкил этиш ва бошқаришни тизимли таҳлил қилиш, шунингдек, педагогик вазиятларда оптимал қарорлар қабул қилиш билан боғлиқ компетенцияларга эга бўлишлари таъминланади.

Дастур мазмунида информатика ва ахборот технологияларининг ривожланиш истиқболлари ҳамда Ўзбекистон Республикасида ахборот коммуникация технологиялари соҳасидаги ислоҳотлар ва хориж тажрибаси эътиборга олинган ва ҳозирги кунда мазкур йўналишда энг долзарб ҳисобланган мавзулар қамраб олинган.

Ўқув дастури “Информатика ва ахборот технологиялари” йўналишидаги тингловчиларга фойдали бўлиб, педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курси талабларига тўлиқ жавоб беради ва уни ўқув жараёнида қўллаш мақсадга мувофиқдир.

**ТАТУ АКТСКТ факультети
декани, п.ф.д., профессор:**

 **Ф.М.Закирова**

MUNDARIJA

1

Ishchi dastur

2

Modulni o'qitishda
foydalaniladigan
interfaol ta'lim
metodlari

3

Nazariy
materiallar

4

Amaliy
mashg'ulot
materiallari

5

Keyslar banki

6

Mustaqil
ta'lim
mavzulari

7

Glossariy

8

Adabiyotlar ro'yxati

I. BO`LIM

ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, korporativ tarmoq, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dasturda axborotlashtiri va kutubxonashunoslik asosiy tushunchalari, Axborot-kutubxona muassasasi turlari va tuzilishi, zamonaviy axborot-kutubxona muassasalari ta’minotlari haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birgalikda Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasasining texnik, dasturiy, axborot ta’minot tuzilmalari aks ettirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik modulining **maqsad va vazifalari:**

- tinglovchilarga axborot-kutubxona faoliyati soxasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalarni, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, sohaning istiqbollarini, jamiyat bilan bog‘langan xolda o‘rgatish;

- tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va mutaxassislarga ixtisoslik bo'yicha malakalarini yanada mustahkamlash uchun axborot - kutubxona uslubiyoti va metodologiyasi, respublikamiz axborot-kutubxona tarmoqlari va tizimlari va ularda mavjud muammolar, istiqbollar hamda aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning ahvoli va muammolari, AKM, ARM va kutubxonalar faoliyati va ularni boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi masalalari va boshqalar haqida zaruriy bilimlar berish va ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish;

- Axborot-kutubxona muassasasi turlari va tuzilishi, zamonaviy axborot-kutubxona muassasalari ta'minotlari, Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasasining texnik, dasturiy, axborot ta'minot tuzilmalarini tuzish malakaviy ko'nikmalarini shakllantirish;

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Modul maqsadi, vazifasi, tamoyillari, qonuniyatlari, metodologiyasini va metodlarini, axborot-kutubxona tipologiyasi;
- Axborot-kutubxona muassasasi turlari va tuzilishi;
- zamonaviy axborot-kutubxona muassasasi ta'minotlari;
- axborot-kutubxona muassasasi texnikaviy, dasturiy, axborot tuzilmasi haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

Tinglovchi:

- zamonaviy axborot-kutubxona muassasasi texnik tuzilmasini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot-kutubxona muassasasi dasturiy tuzilmasini ishlab chiqish;
- zamonaviy axborot-kutubxona muassasasi axborot tuzilmasini ishlab

chiqish ko‘nikma va malakalarini egallashi;

Tinglovchi:

- axborot-kutubxona muassasasi uchun maxsus dasturlar bilan ishlash;
- maxsus dasturlar yordamida avtomatlashtirilgan ishchi o‘rinlarini yaratish

kompetentsiyalarni egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Elektron kutubxona menejmenty” va “Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning axborot-kutubxona tizimlari uchun maxsus dastur yaratish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar axborotlashtirish va kutubxonashunoslik ta’minotlarini o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir

kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	Axborotlashtirish va kutubxonashunoslikning umumiy tushunchalari. Axborot-kutubxona muassasalari tarixi. O'zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonuni va davlat dasturi. Axborot-kutubxona muassasalari turlari va tuzulishi.	4	2	2		2
2.	Zamonaviy Axborot-kutubxona muassasalari asosiy ta'minotlari: Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasalari axborot ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasasi tashkiliy ta'minoti,	4	2	2		2
3.	Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi texnikaviy tuzilmasi.	2	2		2	
4.	Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi dasturiy tuzilmasi.	2	2		2	
5.	Axborot-kutubxona muassasasining axborot ta'minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi axborot tuzilmasi.	2	2		2	
	Jami:	14	10	4	6	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1 - mavzu: Axborotlashtirish va kutubxonashunoslikning umumiy tushunchalari. Axborot-kutubxona muassasalari tarixi. O‘zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risidagi qonuni va davlat dasturi. Axborot-kutubxona muassasalari turlari va tuzulishi.

Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik tushunchasi va kelib chiqish tarixi. Axborot-kutubxona muassasalari yaratilishi va tarixi. Rivojlanish tendensiyalari. O‘zbekiston axborot-kutubxona infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy asoslari.

2 - mavzu: Zamonaviy Axborot-kutubxona muassasalari asosiy ta‘minotlari: Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta‘minoti, Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta‘minoti, Axborot-kutubxona muassasalari axborot ta‘minoti, Axborot-kutubxona muassasasi tashkiliy ta‘minoti, Xalqaro klassifikatorlar(UDK , DDC)

Axborot-kutubxona muassasasi texnik ta‘minoti, dasturiy ta‘minoti, axborot ta‘minoti va tashkiliy ta‘minotini o‘rganish. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasalari ta‘minot tuzilmalarini ishlab chiqish. Hujjatlarni identifikatsiyalash va halqaro klassifikatorlardan foydalanish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta‘minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi texnikaviy tuzilmasi.

Axborot-kutubxona muassasalari uchun texnik ta‘minotni o‘rganish va uni tuzilmasini ishlab chiqish. Zamonaviy texnikalar bilan tanishi va ularni vazifasi o‘rganish. Shu bilan birgalikda Axborot-kutubxona faoliyatida uni samaradorligini aniqlash.

2-amaliy mashg‘ulot. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta‘minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi dasturiy tuzilmasi

Axborot-kutubxona muassasalari uchun dasturiy ta‘minotni o‘rganish va uni tuzilmasini ishlab chiqish. Axborot-kutubxona muassasalari uchun maxsus milliy dasturiy vositalarni o‘rganish, ularni bir-biridan farqli tomonlarini o‘rganish. Jahon

miqyosidagi ochiq kodli(open source) dasturiy vositalaridan foydalanish.

3-amaliy mashg‘ulot.Axborot-kutubxona muassasasining axborot ta‘minoti: Avtomatlashtirilgan Axborot-kutubxona muassasasi axborot tuzilmasi.

Axborot-kutubxona muassasalari uchun axborot ta‘minotni o‘rganish va uni tuzilmasini ishlab chiqish. Axborot-kutubxona muassasalari asossi hisoblangan ma‘lumotlar bazasini o‘rganish. Ma‘lumotlar bazasidagi maydonlarni bibliografik elementlar bilan to‘ldirish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

№	Baholash turlari	Maksimal ball	Ballar
1	Keys topshiriqlari	2.5	1.2 ball
2	Mustaqil ish topshiriqlari		0.5 ball
3	Amalish topshiriqlar		0.8 ball

II. BO`LIM

MODULNI O`QITISHDA
FOYDALANILADIGAN
INTERFAOL TA`LIM
METODLARI

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash

ishlab chiqish	
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi,

qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Portfolio” metodi

“Portfolio” – (ital. portfolio-portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, talaba yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

III. BO`LIM

NAZARIY
MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Axborotlashtirish va kutubxonashunoslikning umumiy tushunchalari. Axborot-kutubxona muassasalari tarixi. O'zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonuni va davlat dasturi. Axborot-kutubxona muassasalari turlari va tuzulishi.

Reja:

1. Axborotlashtirish va kutubxonashunoslikning asosiy tushunchalari.
2. O'zbekiston respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonuni va davlat dasturi.
3. AKM turlari va tuzilishi.

Tayanch iboralar: *Axborot-kutubxona faoliyati, axborot-kutubxona fondi, yig'ma elektron katalog, elektron katalog, axborot-kutubxona resursi, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish, elektron kutubxona, foydalanuvchi.*

1.1. Axborotlashtirish va kutubxonashunoslikning asosiy tushunchalari.

Axborot-kutubxona faoliyati - kitob boyliklari va boshqa axborot manbalaridan jamiyat a'zolarini foydalanishini tashkil etish maqsadida davlat, turli jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar tizimi bo'lib, ular o'zida jamiyatimizda, axborot, madaniy-ma'rifiy va ta'lim berish vazifalarini bajaruvchi soha xisoblanadi. Axborot-kutubxona faoliyati soxasi, boshqa amaliy sohalar kabi o'zini ilmiy-nazariy asoslariga ega bo'lishligi talab etiladi.

Xronologik jihatdan axborot-kutubxona g'oyalari tarixi ikki ming yildan ortiqroq davrni o'z ichiga oladi.

Kutubxonashunoslik g'oyalari kompleks ravishdagi ob'ektiv sabab va sharoitlar natijasida paydo bo'ldi. Ular bevosita eramizdan avvalgi 11 minginchi yillarda paydo bo'lgan birinchi kutubxonalar bilan bevosita bog'liqdir.

Qadimgi dunyoda kutubxonalarni sonini ko'payishi natijasida sekin-asta ularni faoliyati haqidagi ma'lumotlar to'plana boshlandi. Keyinchalik ular haqidagi ma'lumotlarni to'plab taxlil qilish, kutubxonalar ishini tashkil qilish haqidagi eng yaxshi usullarni aniqlash va boshqalar haqida ob'ektiv talablar paydo bo'la boshladi. Bu vazifalar kutubxonashunoslik g'oyalari sifatida qarala boshlandi.

Qadimgi dunyo kutubxonashunoslik g'oyalari - hozirgi vaqtda kutubxona deb ataluvchi muassasalar haqidagi eng oddiy, elementar tushunchalar: tashkil etish, saqlash, tavsiflash, kataloglashtirish va boshqalar haqida fikrlar berilgan.

Oʻrta asrlar davrida kutubxonashunoslik gʻoyalari oʻziga xos qarashlar bilan boyidi. Ushbu davrda Gʻarb mamlakatlari kutubxonachilik ishida cherkovning toʻliq xukmronligi ostida boʻlsa, Sharq mamlakatlarida ayrim xukmdorlar saroyida va diniy muassasalar qoshida kutubxonalarni shakllanishi, ularni diniy yoʻllanishda faoliyat yuritishga olib keldi.

Kutubxonalar “diniy-klerikal madaniyat”ni tarqatish oʻchogʻi sifatida qaraldi va va bunday yondoshish ularni ish mazmuni va shaklini belgilab berdi. Asosiy eʼtibor kitob boyliklarini saqlash va ularni asrash, xisobini olib borish, joylashtirish, kataloglashtirishga qaratildi. Undan foydalanishga eʼtibor kam qaratildi¹.

Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki kutubxonalar IV-VI asrlarda paydo boʻlgan. Markaziy Osiyo mintaqasida kutubxonalarni rivojlanishiga VIII asrdan boshlab Samarqanda yuqori sifatli qogʻoz ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyilishi muxim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrlarda Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Axmad Fargʻoniy, Al-Xorazmiy va boshqalar faoliyat yuritdilar.

Abu Ali ibn Sinoning Buxoro amirining saroy kutubxonasi haqidagi estaliklari judda ham qiziq manba sanaladi: “Men –deydi olim, kitoblar saqlanadigan joyga kirdim. Ular bir qancha xonalardan iborat boʻlib, har bir xonada sandiqlarda kitoblar saqlanar edi. Bir xonada arab tilidagi kitoblar va sheʼriy kitoblar, boshqasida huquqshunoslikka oid kitoblar va shu tariqasida har bir xonada fanning qaysidir sohasiga oid kitoblar saqlanar edi. Men u yerda mendan oldin oʻtgan ilm axli tomonidan yozilgan va bu yerda saqlanayotgan kitoblarni roʻyhatini oʻqib chiqdim.

X asrlarda saroy kutubxonalarida adabiyotlarni klassifikatsiyalashning baʼzi bir usullari qoʻllanila boshlandi va kutubxonalarda mavjud boʻlgan kitoblarning roʻyhatlari tuzilgan, kutubxona ichida esa mehnat taqsimoti yoʻlga qoʻyilgan.

Gʻarb mamlakatlarida ushbu davrlarda “yereticheskij” adabiyotlarni oʻqishni taqiqlash ishlari keng avj oldi. Oʻqish man etilgan” otrechennix”, “lojnonapisannqx” adabiyotlarni roʻyhatlari tuzildi.

Bu davrlarda kutubxonachilik gʻoyalari, kitobsaqlovchilar uchun yaratilgan turli xil yoʻriqnomalar, eslatmalar va nasixatlarda aks eta boshladi. Oʻrta asr kutubxonachilik gʻoyalarini oʻziga xos xarakterli tomoni shundan iborat ediki, kutubxonalarga faqat tor doiradagi odamlar uchungina kitoblar toʻplanadigan joy sifatida qarash xos edi.

Kitob bosishni kafsh etilishidan keyin kutubxonachilik ishini boshqarish

¹ “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 12-13.

bo'yicha dastlabki bosma asarlar paydo bo'la boshladi. Ulardan dastlabkisi Frantsiya kardinali Djuli Mazarini tomonidan kutubxona tashkil etish uchun taklif qilingan teolog va publitsist Gabrielya Node (1627 y.)ning "Kutubxona tashkil etish bo'yicha maslahat" asari edi.

Kutubxonachilik g'oyalarini rivojlanishidagi sezilarli burilishlar Buyuk frantsuz revolyutsiyasi (1789-1794 yillar) davrda paydo bo'la boshladi. Kutubxonalarga "fuqoralar uchun maktab" sifatida qarala boshlandi va ular maktab, maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishda muxim rol o'ynashi zarurligi qayd etila boshlandi.

XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlarida jaxonda kutubxonashunoslikni fan sifatida shakllanishiga asosiy shart-sharoitlar paydo bo'ldi: yetarli darajada boy imperik bazalar yig'ildi, bir qancha muxim g'oyalar tasdiqlandi. Bularni barchasi yangi fanni asosini tashkil etishi mumkin edi.

1.2. O'zbekiston respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi" qonuni va davlat dasturi

O'zbekiston respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi" qonuni maqsadi axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

axborot-kutubxona resursi — moddiy ob'ektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

axborot-kutubxona faoliyati — axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

axborot-kutubxona fondi — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish — foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

yig'ma elektron katalog — axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui;

foydalanuvchi — axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

elektron katalog — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona — axborot-kutubxona fondining elektron shakli.

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;
- foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;
- axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Maxsus vakolatli davlat organi

Maxsus vakolatli davlat organi:

- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida ishtirok etadi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda qabul qiladi;
- axborot-kutubxona resurslarini noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslari sirasiga kiritish tartibini, shuningdek ularni saqlash va ulardan

foydalanish tartibini belgilaydi;

- axborot-kutubxona faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
- axborot-kutubxona muassasalarining hisobini yuritadi;
- yig‘ma elektron katalogni shakllantirish va yuritish tartibini tasdiqlaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

1.3. Axborot-kutubxona muassasalarining turlari va tuzilishi

Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta‘minot asosida faoliyat ko‘rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir. Axborot-kutubxona muassasasi mustaqil muassasa bo‘lishi yoxud korxonaga, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalariga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi;
- axborot-kutubxona markazlari;
- axborot-resurs markazlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;
- boshqa kutubxonalar (fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko‘ra universal hamda maxsus axborot-kutubxona muassasalariga bo‘linadi².

Universal axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning turli sohalari bo‘yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus axborot-kutubxona muassasalari axborot-kutubxona fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo‘yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta‘limini rivojlantirish manfaatlarini ko‘zlagan holda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal axborot-kutubxona muassasasidir.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi:

- axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va

² “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages –71-72.

amalga oshirishda ishtirok etadi;

- axborot-kutubxona fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to'liq to'plamini taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertatsiyalarning ko'chirma nusxasini oladi;

- O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;

- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

- kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

- noyob va alohida qimmatli axborot-kutubxona resurslarini but saqlash, konservatsiyalash va restavratsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

- yig'ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;

- axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

- boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Axborot-kutubxona markazlari

Axborot-kutubxona markazlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-kutubxona markazlari:

- axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;

- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

- tegishli hududda chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;

- bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy ishlarni bajaradi;

- tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;

- yigʻma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;
- axborot-kutubxona resurslaridan oʻzaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- tegishli hududda axborot-kutubxona muassasalarining depozitar saqlanadigan axborot-kutubxona resurslarini toʻplashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.

Axborot-kutubxona markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-kutubxona markazi toʻgʻrisidagi namunaviy nizom Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Axborot-resurs markazlari

Axborot-resurs markazlari davlat taʼlim muassasalari huzurida tashkil etilgan, oʻquvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxona muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlari:

- Taʼlim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-taʼlimga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini taʼminlaydi;

- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

- shaxsning maʼnaviy boy va barkamol ijodiy oʻsishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda oʻzidagi va oʻzidan uzoqdagi axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish asosida Oʻzbekiston xalqining tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;

- axborot-kutubxona resurslaridan oʻzaro foydalanishni taʼminlaydi;

- boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

- yigʻma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

- madaniy, taʼlim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun taʼlim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-resurs markazlarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.

Axborot-resurs markazi to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekistondagi maxsus axborot-kutubxona muassasalari

“Maxsus kutubxona” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, qandaydir predmet yoki xodisaga, mutaxassislikka nisbatan “alohida” degan ma‘noni bildiradi. Maxsus kutubxonalar XX asrning boshlarida maxsus gurux sifatida shakllandi. Bu vaqtda fanlarni bo‘linish davri (differentsiatsiyalanish) tugayotgan va birlashish ya'niy integratsiya davri boshlanayotgan davr edi.

Maxsus kutubxonalarining ijtimoiy ijtimoiy vazifasi-kasbiy o‘qishni- ya'niy mutoalaani tashkil etishdir. Kasbiy o‘qish fondni komplektlash sohasini, kitobxonlar kontengentini, ishlarni tashkil etishning shakl va usullarini aniqlaydi.

Maxsus kutubxonalar o‘z fondalarini o‘zlari xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonasi sohasi bo‘yicha komplektlaydi. Komplektlash ob'ekti sifatida kitoblar, vaqtli va davomli nashrlar, standartlar, kashfiyotlarni tavsiflari, ma'muriy-idoraviy nashrlar, xisobotlar, chizma-konstruktorlik va loyixaviy xujjatlar, shuningdek nashrlarning maxsus turlari-kartografik, musiqa-notalari, audiovizul nashrlar bo‘lishi mumkin.

Maxsus kutubxonalar-nafaqat xujjatli fondlarni saqlovchi joy, balki xujjatli-axborot kommunikatsiya markazi, keyingi vaqtlarda esa elektron kommunikatsiya markazi hamdir. Shuning uchun ushbu kutubxonalar faoliyati favat bibliografik ma'lumotlarni qidirish va birlamchi xujjatlarni yetkazib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular faoliyatida faktografik axborotlarni yetkazib berish ushbu faoliyatda muxim o‘rinni egallaydi. Masalan, maxalliy ishlab chiqarish va savdo haqidagi ma'lumotlarni bilish kutubxona xodimidani maxsus bilimlarni talab etadi.

Olimlar va mutaxassislarni axborotga bo‘lgan so‘rovlarining mazmuniga ularni kasbiy faoliyati ta'sir ko‘rsatadi, ularni kutubxona resurslariga bo‘lgan talablarning aniqlanishi esa mavzuli yo‘nalish orqali belgilanadi. Shuning uchun maxsus kutubxonalar bir- biri bilan avvalo bilim sohalari bo‘yicha farq qiladi.

Maxsus kutubxonalarini uchta asosiy guruxga ajratish mumkin: ijtimoiy-ilmiiy (gumanitar), tabiiy-ilmiiy va amaliy soxa. Keyingi bo‘linish maxsus kutubxonalarini fan tarmoqlari va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan fondlarni tashkil etishga qarab amalga oshiriladi (astronomik va geologik, geografik va kartografik, tarixiy va san'atshunoslik, yuridik, meditsina, qishloq xo'jaligi, texnika va x.k).

Maxsus kutubxonalarini tabaqalashtirishning muxim belgilaridan biri kutubxona mansub bo‘lgan tashkilotning ish faoliyati xisoblanadi. Shunga asosan ilmiy, o‘quv, ishlab chiqarish va boshqaruv kutubxonalarini ajratiladi. Shuningdek

boshqa belgilar bo'yicha ham guruxlarga ajratish mumkin. Masalan, kutubxonalarni statusi bo'yicha- respublika, soha bo'yicha markaziy, regional, bosh kutubxona, shoxobcha. Adabiyotlar turi bo'yicha- (patent kutubxonasi), abonentlarga xizmat ko'rsatish kategoriyasi bo'yicha (ko'zi ojizlar kutubxonasi).

O'zbekiston xududida maxsus kutubxonalar XIX asrning ikkinchi yarmidan paydo bo'la boshladi va ular ma'lum gurux kishilariga xizmat ko'rsatar edi. Ular dastavval Samarqand va Toshkent shaxrida faoliyat yuritdilar. Bu tipdagi kutubxonalar avvalo ilmiy-texnik jamiyatlar qoshida tashkil etildi va rus axolisiga xizmat ko'rsata boshladi. Ulardan faqat ilmiy va injener-texnik xodimlar, ma'muriyat va ilmiy muassasalar vakillarigina foydalanishgan.

O'zbekistondagi eng yoshi ulug' maxsus kutubxonalar- O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Astronomiya instituti kutubxonasi (1873 y.), Samarqand viloyatidagi lalmi tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasi (1913 y.), O'zbekiston Davlat madaniyat va san'at muzeyi ilmiy-ma'lumot kutubxonasi (1911y.Samarqand) xisoblanadi.

Respublikadagi yirik maxsus kutubxonalar quyidagilardir:

- O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi;
- Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi;
- Respublika ilmiy meditsina kutubxonasi;
- Markaziy ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi.

Ushbu kutubxonalarning fondi million nusxadan oshib ketgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi 1933 yilda tashkil etilgan. Uni tarixi respublikadagi ilm-fanni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Ushbu kutubxona akademik kutubxonalar tarmog'ini boshqaradi. Uni tarkibiga 30 ga yaqin ilmiy-tekshirish institutlarini kutubxonalari kiradi.

Maxsus kutubxonalar ichida asosiy o'rinlardan biri texnika kutubxonalari kiradi. Texnika kutubxonalari ichida eng ko'p tarqalganlari ishlab chiqarish korxonalar va birlashmalari qoshidagi kutubxonalari xisoblanadi. Ularni fondida salmoqli o'rinni jurnallar, texnik xisobotlar, ma'muriy-idoraviy nashrlarning ba'zi bir xillari, standartlar, chizma-konstruktorli xujjatlar va boshqalar tashkil etadi. Ular kitobxonlarga zudlik bilan ilmiy-texnika xujjatlari haqida axborot berish imkonini beradi. Texnika kutubxonalarida asosan keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlar bo'ladi. Chunki texnikaga oid adabiyotlar juda tez eskiradi.

Respublika texnika kutubxonalari ichida yetakchi o'rinni 1957 yilda tashkil etilgan, 2 milliondan ortiq kitob fondiga ega bo'lgan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi tashkil etgan. Hozirda ushbu kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarkibiga kirgan.

O'zbekiston sog'liqni saqlash axoliga meditsina xizmati ko'rsatish tizimida

286 ta maxsus kutubxonalar mavjud bo‘lib, ular tarkibiga 12 ta viloya meditsina kutubxonalari, meditsina ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv muassasalari, davolash-profilaktika muassasalari, kasalxonalar qoshidagi kutubxonalar kiradi

Respublikada Qishloq xo‘jaligi soxasiga oid maxsus kutubxonalari kamchilikni tashkil etadi. Ularni jami -27 ta. Ushbu kutubxonalari asosan ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba uchastkalari, oliy o‘quv yurtlari va kollejlari, umuman Respublika qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga qarashli bo‘lgan kutubxonalardir.

“O‘quv kutubxonasi” atamasi kutubxonashunoslikda uzoq vaqtdan beri qo‘llanilib kelinayotgan atamadir. O‘quv kutubxonasi deganda o‘quv jarayoni davomida paydo bo‘ladigan foydalanuvchilarni axborotga bo‘lgan talablarini qondiruvchi kutubxonalar tushuniladi. Ushbu kutubxonalarni quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin: oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari (universitetlar, akademiyalar, institutlar), kollej, akadem litsey kutubxonalari, maktab kutubxonalari. O‘quv muassasalari kutubxonalari o‘quvchilarni tarbiya va ta’lim olishlariga yordam berishga mo‘ljallangan. O‘quv jarayonini ta’minlash ularni eng muxim ijtimoiy vazifasi va o‘ziga xos belgisi xisoblanadi. Ular universal mazmundagi fondga (maktab, universitet kutubxonasi), shuningdek o‘quv yurtining sohasiga mos ravishdagi fondga, shuningdek ko‘p nusxadagi o‘quv adabiyotlariga ham egadir.

O‘quv kutubxonalari nafaqat o‘quv jarayoninigina qondiribgina qolmasdan, balki ular tarbiyaviy funktsiyani, shuningdek ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga oid talablarni ham bajaradi³.

“Boshqarma kutubxonasi” atamasi maxsus kutubxonalarni yana bir turi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu kutubxonalar boshqaruv faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan axborotga bo‘lgan talablarni qondiradi. Boshqaruv kutubxonalarni quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin: davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari kutubxonalari (Oliy Majlis (Parlament), Prezident kutubxonasi), maxalliy va o‘z o‘zini boshqarish organlari (xokimiyatlar, maxalla qo‘mitalari), sud organlari va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati kutubxonasida 2600 dan ortiq kitoblar mavjud bo‘lib, kutubxona har yili 40 ta nomdan ortiq respublika, 26 viloyat va 36 nomdagi chet el gazetalarini, respublika va chet ellarda chop etiladigan 98 nomdagi jurnallarni oladi. Kutubxona cheklangan kitobxonlar kontengentiga Prezident ma’muriyati va O‘zbekiston Respublikasi xukumati apparati xodimlariga xizmat ko‘rsatadi (600 ga yaqin odamga).

Maxsus kutubxonalarni aloxida guruxi sifatida ko‘zi ojizlar kutubxonalari

³ “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages -76-77.

xisoblanadi. Respublika markaziy ko‘zi o‘jizlar kutubxonasi va yettita viloyat ko‘zi o‘jizlar kutubxonalari -ko‘zi o‘jiz kitobxonlarga xizmat ko‘rsatuvchi Respublikadagi eng yirik kutubxonalar xisoblanadi. Ushbu kutubxonalar O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligiga qarashlidir. Ular bo‘rtma-nuqtali (**рефлекто-точечным**) shrifta chop etilgan nashrlar va plastinka va magnit lentalariga yozilgan kitoblar saqlanadigan davlat saqlovxonasi, shuningdek ko‘zi o‘jizlar uchun nashrlarning depozitar kutubxonasi hamda tiflologiya (ko‘zi o‘jizlar xayoti va faoliyati haqidagi fan) adabiyotlari kutubxonasi xisoblanadi. Hozirda 23 ta shaxar va 29 ta rayon kutubxonalari ko‘zi o‘jiz kitobxonlarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar turi bo‘yicha maxsus kutubxonalar guruxiga Respublika patent idorasining Respublika patent kutubxonasi kiradi. RPK –O‘zbekistondagi ixtirolar bo‘yicha 50 ta davlatning, Butun jaxon intellektual mulk tashkiloti, Yevropa va Yevroaziya patent idoralarining xujjatlar to‘liq saqlanadigan yagona patent bosh fondi xisoblanadi. Kutubxonada 21 milliondan ortiq patent xujjatlari mavjud bo‘lib, ularning 6 millioni kompakt optik disklardadir

Respublikada kasaba uyushmalari kutubxonalari tarmog‘i keng tarqalgan bo‘lib, ular korxonalar va tashkilotlarning tarkibida bo‘lib, aniq bir mexnat jamoasiga adabiyotlar bilan xizmat ko‘rsatadi. Ushbu kutubxonalarni fondi universal xisoblanadi. Lekin ular o‘z fondlarini komplektlashda xizmat ko‘rsatayotgan korxonaning soxasi, unda mexnat qiluvchilarning tarkibi, hamda kasba uyushmasining o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga oladilar.

Shuningdek kasba uyushmalari tarmog‘ida statsionar (doimiy, bir joydagi) kutubxonalar ham mavjud bo‘lib, ular kasba uyushmasi klublari, madaniyat uylari va saroylari hamda ishlab chiqarish korxonlari xududida joylashgan bo‘lishi mumkin. Baxtga qarshi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘pgina korxonlarning yopilishi munosabati bilan bu turdagi kutubxonalarning soni kamayib bormoqda.

Ushbu turdagi kutubxonalar kasalxonalar qoidagi bemorlar uchun kutubxonalar, dam olish uylari, sanatoriyalar, qamoqxonalalar, xarbiy qismlar va ofitserlar uylari qoshidagi kutubxonalar kiradi.

Shuningdek turli xil diniy tashkilotlarning kutubxonalar tarmog‘i rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda 15 diniy konfessiyalar mavjud bo‘lib, ularni bir qanchasi O‘zbekiston uchun noan’anaviy xisoblanadi.

Axolini ijtimoiy faolligini o‘sishi natijasida turli xil yangi jamoat kutubxonalari turlari paydo bo‘lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Elektron kutubxona nima?

2. Elektron katalog nima?
3. Axborot-kutubxona fondi nima?
4. Axborot-kutubxona resursi nima?
5. Axborot-kutubxona faoliyati nima?
6. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish nima?
7. Axborot-kutubxona fondi qanday jamlanadi
8. O'zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonuni qachon qabul qilingan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. "Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>

2-mavzu: Zamonaviy Axborot-kutubxona muassasalari asosiy ta'minotlari: Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasalari axborot ta'minoti, Axborot-kutubxona muassasasi tashkiliy ta'minoti

Reja:

1. Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minoti.
2. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti.
3. Axborot-kutubxona muassasasining axborot ta'minoti.
4. Axborot-kutubxona muassasasining tashkiliy ta'minoti.

Tayanch iboralar: *Texnik ta'minot, dasturiy ta'minot, axborot ta'minoti, tashkiliy ta'minot.*

2.1 Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minoti

Har qanday kutubxona tashkilot sifatida aniq bir bo'limlardan iborat. Xar bir bo'lim bajaradigan ishlar avvaldan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarda kutubxonaning bosh maqsadi – kitobxonlarga kerakli adabiyotlarni berish va axborot xizmati ko'rsatishga yo'naltirilgandir. Agarda bu ishlardan biri bajarilmasa yoki to'liq bajarilmasa, kutubxonada ish sifati pasayib ketadi, kutubxonachilarning faoliyat ko'rsatishi qiyinlashadi, kitobxonlar esa kerakli axborotlarni tezda ololmaydilar, zarur xizmat turlaridan xam foydalana olishmaydi. Demak, kutubxona faoliyatining samaradorligi uning tarkibidagi bo'limlarda ishning to'g'ri taqsimlanishiga bog'liq ekan.

Avtomatlashtirilgan kutubxona- bu kutubxona ishini tashkil etishning ilg'or formasi hisoblanib, u avvalo tizim qismi va elementlarini o'zaro bog'lovchi tizim sifatida qaraladi. AK kutubxona xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirib, kitobxonlarga tezkorlik bilan xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Har qanday tizim shunday qismlardan iboratki, ularsiz tizim faoliyat ko'rsata olmaydi. Agarda tizim qismlaridan biri bo'lmasa yoki qoniqarsiz ishlasa, u holda tizim o'z oldiga qo'yilgan bosh vazifani bajara olmaydi.

Texnik ta'minot (TT) – kutubxona jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga mo'ljallangan texnik vositalar (shaxsiy kompyuterlar, tashkiliy texnika, serverlar, printerlar va h.k.) majmui.

Kutubxonaning texnik ta'minoti o'z ichiga texnik vositalar kompleksi (E H M, tashqi qurilmalar, terminallar, abonent punktlari, aloqa vositalari) ni oladi. Bu

vositalar yordamida kutubxonada axborotlar yig‘iladi, saqlanadi, ishlov beriladi, qidiriladi va uzatiladi. Bulardan tashqari adabiyotlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan texnik qurilmalar ham texnik ta‘minot tarkibiga kiradi⁴.

Texnika ta‘minoti yuzasidan ayni paytda O‘zbekiston kutubxonalarida ikki xil manzarani kuzatish mumkin:

1. Barcha diqqat-e‘tiborini kutubxonalarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga qaratilgan. Katta mablag‘ evaziga keltirilgan texnikani ishga tushirib, ish unimini oshirish uchun shu sohani mukammal egallagan malakali kadrlar tanqisligi ko‘zga tashlanadi

2. Kutubxonalar yaratishga bog‘liq barcha muammolar yechimi moddiy, ma‘naviy ta‘minot mablag‘ masalasiga borib taqaladi. Ushbu muammoni hal etish uchun, avvalo, kutubxonalarda qo‘shimcha daromad keltiradigan hujjatli mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta ishlov berish faoliyatini yo‘lga qo‘yish kerak. EK yaratishda:

Kompyuter;

Modem;

Tarmoqlarning o‘rni beqiyosdir.

2.2. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta‘minoti

Dasturiy ta‘minot– kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga muljallangan dasturiy vositalar majmui. Bunga AK tizimini tashkil qiluvchi dasturlar kiradi, ya‘ni axborot qidiruv tizimi, shtrix kodlash tizimi.

Umumiy dasturiy ta‘minoti

Tizimdagi xisoblash vositalarning tarkibiy bulaklarini boshqarish, xisoblash ishlarining navbatmanavbat bajarilishini rejalashtirish, ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishni avmatlashtirishga, shuningdek dastur tuzuvchilar ishlarini avtomatlashtirishga muljallangan dasturlar majmuidir.

Maxsus dasturiy ta‘minot

Biror predmet soxasi bilan boglik aniq amaliy masalalarni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan dastur yoki dasturlar majmuidir.

Avtomatlashtirilgan ish joyi

Aniq kutubxona jarayonlari bajarishni avtomatlashtirish uchun muljallangan maxsus dastur modullari, tashkiliy texnikaviy va xisoblash texnikasi

⁴ “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages –62-63.

vositalarining kerakli jamlamasini o'z ichiga oluvchi texnik dasturiy kompleksdir

IAKT avtomatlashtirilgan ish joylari:

- «Kitobxon» ning AIJ;
- «Kataloglashtiruvchi» ning AIJ;
- «Kitob beruvchi» ning AIJ;
- Kutubxona fondining butlovchining AIJ;
- «Ma'mur»ning AIJ.

Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimining dasturiy ta'minotni tanlash ko'rsatgichlari :

- Tizimda bajariladigan jarayonlar majmuasi (AIJlari). Tizim qanday vazifalarni bajarishini, rejalashtirilgan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradigan AIJlari yetarli ekanini va bu vazifalarining to'g'ri bajarayotganini aniqlash zarur.
- Taxlillarning ko'rsatishicha, malakali kutubxonachilar xamkorligida yetakchi kutubxonalarining avtomatlashtirish bo'limlarida ishlab chikilgan AKT ancha samarali tizim xisoblanadi.

Tizimlarning tannarxi.

Zamonaviy tizimlarning narxi bir necha ming dollardan bir necha yuz ming dollargacha yetadi. Xar doim xam tizimning tannarxi uning sifat darajasiga mos kelavermaydi. Shunday tashkilotlar xam borki, agarda ularning tizimini kutubxonalar konsortsiumi, ya'ni yagona maqsadga birlashgan (masalan, yig'ma elektron katalog yaratish uchun) bir necha kutubxona sotib olsa, u xolda bu tashkilotlar tizim narxini ancha arzonlashtirishi mumkin.

Bibliografik axborotlarni xalkaro talablarga mos xolda tasvirlash va qayta ishlash.

AKTlarini ishlab chiquvchi xavaskor jamoalarning eng katta kamchiliklaridan biri ularning xalkaro standartlar va formatlarni bilmasligidir. Bu esa tizim bir yoki bir nechta kutubxonalar miqyosida ajralib qolishiga, elektron manbalar esa boshqa kutubxonalar uchun yopiq bo'lishiga, ma'lumotlarni xalqaro formatlar ko'rinishida ayirboshlash va bibliografik axborotlarni uzatishga qo'shimcha moddiy xarajatlar sarflanishiga olib keladi.

Texnikaviy imkoniyatga mosligi.

Agar kutubxonaning texnik vositalari ko'p bo'lmasa va yaqin orada ularni ko'paytirish ko'zda tutilmagan bo'lsa, murakkab xisoblash texnikasini talab qiluvchi qimmatli AKT sotib olishga shoshilmagan ma'qul.

Tizimning texnikaviy xarakteristikalari (tizim kayta ishlashi mumkin bo'lgan axborotning maksimal xajmi, qayta ishlash tezligi, telekommunikatsion imkoniyati, muloqot shakli va x.k.)

Agarda kutubxonaning fondi uncha katta bo'lmasa (aytaylik, 20-25 ming kitob va jurnal bo'lsa), u xolda bu fondni qayta ishlashga mo'ljallangan, ancha arzon kichik AKTni sotib olish mumkin. Agarda chet el tizimlari sotib olinsa, bu tizimda muloqot shakli chet tilida bo'ladi, u xolda tizimni yetkazib beruvchidan muloqot shaklini maxalliy tilga o'tkazishini talab qilish mumkin.

2.3. Axborot-kutubxona muassasasining axborot ta'minoti

Axborot ta'minoti – bu axborot massivlari majmui, bibliografik axborotlar tasnifi va kodlashtirish, bibliografik formatlar, ma'lumotlar bazalari

EXM tashqi Axborot ta'minoti –

- ✓ Bibliografik xamda boshqa axborotlarni tasniflash va kodlashtirish tizimi;
- ✓ Ma'lumotlar, me'yoriy va uslubiy xujjatlar.

EXM ichki Axborot ta'minoti

- ✓ Elektron kataloglar, anotatsiyali va to'liq matnli ma'lumotlar bazalari.

O'quv jarayonni axborot ta'minoti

Axborot ta'minoti bu o'quv jarayonida axborot massivlari, bir tizimga keltirilgan va o'quv jaryonida qo'llanadigan axborotlar majmui, bibliografik axborotlar tasnifi va ma'lumotlar bazasi. AT ga kerak bo'lgan mavzularni o'rganish uchun elektron o'quv va metodik darsliklar, ma'lumotnomalar va tezda axborotni topish uchun bo'lgan kataloglar kiradi.

AKTni elektron bazasi o'z ichiga kuydagi komponentlarni kiritadi:

- Elektron katalog;
- Elektron darsliklar bazasi;
- Ma'lumotnomalar bazasi;
- Fan va texnikaga tegishli elektron bazasi;
- Multimedia ma'lumotlar elektron bazasi;
- Testlar bazasi.

Elektron darslik bu raqamli formada berilgan, maxsus xolda formatlashtirilgan va predmetni o'rganishni imkonitini beradigan o'quv qullanma (gipertekst, qidirish jarayonini avtomatlashtirish, o'z bilimni tekshirish v.k.z.)

Elektron darsliklarni bazasi bu bir tizimga keltirilgan va klassifikatsiya qilingan darsliklar to'g'risidagi ma'lumotlar va maxsus shartlarga rioya qiladigan to'liq ma'lumot darsliklar bazasidir.

Multimedia elektron bazasi bu o'quv jarayoniga tegishli video, audio, va ularni kombinatsiyasi majmui.

Testlar ma'lumot bazasi bu talabarni bilimni tekshirish uchun yaratilgan test tizimini ma'lumot qismi.

Fan va texnika elektron bazasi bu o'quv jarayoniga tegishli elektron jurnallar, kitoblar, maqolalar va boshqa ma'lumot materiallar to'plami⁵

EKning til ta'minoti ham elektron katalogni yaratishdagi shartli vositalardan biridir.

Kutubxonaning elektron katalogini yaratish va undan foydalanish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- EK tizimida foydalanilayotgan texnika vositalari va dasturiy ta'minotning ochiq xarakterdaligi;
- Mamlakatimizdagi va chet ellardagi nashrlarning bibliografik tasvirlarni bir marotoba kataloglashtirish va ulardan ko'p marotoba foydalanish;
- Tizim ichki formatida standart kommunikativ formatlardan foydalanish va bibliografik import-eksport qilishga muljallangan konvertorning mavjudligi;
- EK tizimiga kirish Internet tarmoqi, http va Z3950 protokollari yordamida bajariladi;
- Bibliografik ma'lumotlar bazasida axborotlar qidirish quyidagi belgilar: muallif (yoki mualliflar), sarlovxa, predmet ruknlari, UDK va BBK indeksi, ochqich so'zlar, seriya nomi, nashr etilgan joy, nashr vaqti, hujjatning saqlanayotgan joyi va boshqa bir qator belgilar asosida bajarilishi mumkin.

2.4. Axborot-kutubxona muassasasining tashkiliy ta'minoti

Tashkiliy ta'minot (TT) - AK ning tashkiliy tuzilishi va lavozimlar uchun yo'riqnomalar majmuini o'z ichiga olgan va kutubxonani bir maromda ishlashi uchun lozim bo'lgan farmoyishlardir.

Kutubxona tashkiliy tuzilmasi undagi turli bo'limlar faoliyatini (bir-biriga bo'ysunishini) tartibga soladi. Bu esa AK tashkiliy masalalarini samarali hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Kutubxonada avtomatlashtirish vositalari paydo

⁵ "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages -46-68.

bo‘lishi bilan u yerda yangi bo‘limlar (avtomatlashtirish, elektron kataloglashtirish, kompyuterlashtirilgan zallarda kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish va h.k.) tashkil etiladi. Demak, kutubxona tashkiliy tarkibi o‘zgaradi. Kutubxona eng zamonaviy texnika vositalariga ega bo‘lishi mumkin, ammo mehnatni to‘g‘ri tashkil etmaslik, bu texnika vositalarining asosiy funksiyalarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday holda texnika vositalarining foydali ish koeffitsienti kutilganidan past bo‘ladi.

Kadrlar ta‘minoti – (KT) AK faoliyatini ta‘minlovchi xodimlar majmui, kadrlar tarkibi malakasini turli ta‘minot ko‘rinishlari (texnik, axborot va dasturiy ta‘minotlar) ga mos holda oshirib turishga mo‘ljallangan tadbirlar. Kadrlar ta‘minoti yana o‘z ichiga kutubxonachilar tayyorlash va ularning malakalarini oshirish, AK dan foydalanishning zamonaviy usullarini o‘qitishni ham oladi. Kadrlar ta‘minoti tashkiliy ta‘minotning ajralmas muhim qismidir. Kutubxonalarni avtomatlashtirish kutubxonachilar xizmat vazifalari yo‘riqnomalariga jiddiy tuzatishlar kiritish va kadrlar malakasini yangi texnologiyalar asosida oshirishni talab qiladi. Kadrlar ta‘minoti o‘z xodimlaridan AK talablari va ehtiyojlari asosida ta‘lim olishni taqozo qiladi.

Uslubiy va huquqiy ta‘minot (UHT) –AK faoliyati uchun zarur uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy va me‘yoriy hujjatlar majmuidir. AK ning bu ta‘minoti muhim ta‘minot bo‘lib, u kutubxonachilar faoliyatini huquqiy jihatdan aniqlab beradi. Uslubiy va huquqiy ta‘minot o‘z ichiga kutubxonalar va unga yaqin sohalar (axborot texnologiyalari, Internet, elektron resurslar, axborotga ega bo‘lish huquqi va boshqalar)ni rivojlantirishga mo‘ljallangan hukumat qarorlarini oladi. Bu qonunlar jumlasiga: «Kutubxonalar haqida qonun», yoki «Kutubxona ishi haqida qonun», «Majburiy ekzemplar haqida qonun», «Elektron kutubxonalarni rivojlantirish dasturi», «Respublikani axborotlashtirish dasturi», «Ma‘lumotlar bazasi va dasturlar bo‘yicha mualliflik huquqi himoyasi to‘g‘risida qonun» va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy ta‘minot – AK ni moliyalashtiruvchi vositalar majmui. Bunga davlat tashkilotlaridan olinadigan mablag‘lar, davlat dasturlaridan ajratiladigan mablag‘lar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy ta‘minotga xalqaro va mahalliy fondlarning grantlari ham kiradi.

Nazorat savollari

1. Texnik ta‘minot nima va unga nimalar kiradi?
2. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta‘minoti nima?
3. Axborot-kutubxona muassasasining axboroty ta‘minoti nima?
4. Axborot-kutubxona muassasasining tashkiliy ta‘minoti nima?
5. Qanday avtomatlashtirilgan ish joylari mavjud?

Adabiyotlar va internet resurslar

1. “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. "Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>

IV. BO`LIM

AMALIY MASHG`ULOT
MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot. Axborot kutubxona muassasalarining texnik ta'minoti. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasalarining texnikaviy tuzilmasi

Ishdan maqsad: Axborot kutubxona muassasalarini texnik ta'minotini o'rganish. Foydalanuvchularga xizmat ko'rsatishda texnika samaradorligini aniqlash. Ma'lumotlarni saqlashda texnika vazifalarini belgilab olish va AKM uchun texnik tuzilma ishlab chiqish.

Kutubxonaga kompyuterlar olinmasdan avval, kutubxonada qanday ishlarni avtomatlashtirish mumkin va bunda qanday masalalar hal qilinishi to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish lozim. Moliyaviy imkoniyatni ham chamalab ko'rish va eng kerakli texnika vositalarini sotib olishni mo'ljallash kerak. Moliyaviy muammolar bo'lganda va kutubxonadagi kadrlar tayyorgarligi yetarli emasligi hamda elektron pochta va Internetga ulanishda muammolar borligi yuqorida aytilgan fikrning muhim ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu yerda yana bir narsani hisobga olishga to'g'ri keladi, u xam bo'lsa texnika vositalarini sotib olish, uni doimo profilaktik nazorat qilish va butlovchi qismlar bilan ta'minlashni talab etadi. Bu esa qo'shimcha xarajatlar demakdir.

Shaxsiy kompyuter (ShK) elektron kutubxonalarning muhim texnik elementi hisoblanadi. Bu qo'llanmada biz ShK lar qurilmalariga to'xtalib o'tirmaymiz, chunki bunga bag'ishlangan bir qator adabiyotlar mavjud. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki ShK elektron kutubxonada kutubxonachi ish o'rnidan to servergacha turli vazifalarni bajaradi, lokal tarmoqdagi barcha jarayonlarni boshqaradi va axborotlarni uzatadi.

SD tower (CD disk minorasi) – bu qurilma bir paytning o'zida CD disklarning bir nechasini yuklash va turli manbalarga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Uni ShK ning maxsus turi sifatida, katta hajmdagi axborotlarga ega bo'lgan, bir necha CD disklarda joylashgan katta ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi kompyuter sifatida qarash mumkin. SD tower lokal tarmoqlar uchun server vazifasini ham bajarishi mumkin.

Server - bu kompyuter bo'lib, u bevosita kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishda (kataloglashtirish, fondni butlash va boshqa) foydalanilmaydi, ammo u umumiy tizimli resurslarga kirish uchun imkon beruvchi (hisoblash quvvatlari, ma'lumotlar bazasi, dasturlar kutubxonasi, printerlar, fakslar va boshqalar) va bu resurslarni taqsimlovchi kompyuterdir.

Bunday kompyuterdan pochta serveri va Internet serveri sifatida ishlatish va bu yo'nalishdagi jarayonlarni boshqarishda foydalanish mumkin. Kutubxona tizimida ishlatilayotgan ko'plab serverlar juda katta tashqi xotiraga va katta tezlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi, ular katta hajmdagi kutubxona axborotlarini, masalan, elektron kataloglarni saqlashga mo'ljallangan.

Bosib chiqarish qurilmalari – bosish kurilmasi yoki printerlar (inglizcha-printer) alfavit-raqamli (matnli) va grafik axborotni qog'ozga tushirish uchun mo'ljallangan. Bugungi kunda printerlar uch ko'rinishda ishlab chiqarilmoqda: zarbli printerlar (literli, matritsa nuqtali printerlar), purkovchi va termografik va elektrofotografik (lazerli).

Zarbli printerlarning kamchiligi shundaki, ular shovqin bilan sekin ishlaydi, yutuq tomoni ularning arzonligida.

Purkovchi printerlar shovqinsiz, tez ishlaydi, bosib chiqarishi xam yuqori sifatli, ammo katta hajmdagi matn, grafik, diagramma, rasmlarni bosib chiqarish talab etilsa lazerli printer sotib olgan maqsadga muvofiq.

Printerlarning asosiy texnik xususiyatlari :

- harakat printsipi ;
- rang imkoniyatlari (oq qora yoki rangli printerlar)
- grafik imkoniyatlari yoki uning yo'qligi ;
- ruxsat berish (hal etish) qobiliyati ;
- oldingi ko'rsatkichlar bilan bog'liq va uni boyituvchi bosish sifati ;
- bosish tezligi ;
- narxi ;

Grafik axborotlarni bosib chiqarishda hal qilish qobiliyati 600 dpi dan kam bo'lmagan printer tanlash maqsadga muvofiq.

Skanner – matnli va grafik axborotlarni kompyuter xotirasiga kirituvchi qurilma. U matnli va grafik axborotlarni kompyuter xotirasiga kirituvchi va ularni aniqlovchi dasturiy texnik vositalarga ega. Bu qurilma yordamida kompyuter xotirasiga katta hajmdagi matnli axborotlar avtomatlashtirilgan holda kiritiladi va bunda mutaxassislar ishi ancha osonlashadi, ya'ni ular axborotlarni qo'lda klaviatura orqali kiritishday mashaqqatli ishdan ozod bo'ladilar. Skanerlardan kutubxona ishida keng foydalanilmoqda. Jumladan, to'liq matnli ma'lumotlar bazasini yaratish, kataloglar, manuskriptlar va boshqa grafik axborotlarni kiritishda skanerlar qo'l kelmoqda.

Raqamli fotoapparat –bu qurilma biz odatlanib qolgan oddiy fotoapparatga o'xshab ketadi, farqi shundaki, raqamli fotoapparat yordamida olingan tasvirlar raqamli axborot shaklida bo'lib, ularga kompyuter yordamida ishlov berish

mumkin. Raqamli fotoapparat yordamida olingan tasvirlar elektron tashuvchilarga yoziladi va ulardan ekranda tasvirlash yoki ishlov berishda foydalaniladi. Raqamli fotoapparatdan rasmlarni, manuskript, matnli va boshqa axborotlarga kompyuterda ishlov berish, aloqa kanallari orqali uzatish maqsadida ham foydalanish mumkin. Kutubxona ishida raqamli fotoapparat, arxiv hujjatlarini ba'zi bir sabablarga ko'ra skaner orqali kompyuter xotirasiga kiritish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Modem – bu qurilma nomi ikki so'z birikmasidan (modulyator va demodulyator) tashkil topgan.

Modem uzatilayotgan va qabul qilinayotgan ma'lumotlarni «modullashtirish» va «demodullashtirish» vazifalarini bajaradi. Signallarni modullashtirish deganda biz signalni uzoq masofaga uzatish uchun shakl almashtirishni tushunamiz. Elektron impulslar dastlab modemda tovush chastotasiga aylantiriladi, so'ngra telefon tarmog'i orqali uzatiladi. Signallar qabul qilinayotganda bu tovushli signallar modem yordamida kompyuterga moslab ikkilik elektr impulslari ketma-ketligi shaklida o'zgartiriladi. Bir kompyuterdan ikkinchisiga axborot uzatilayotganda raqamli impulslar ikki marta o'zgartiriladi: avval tovushli signal (modullashtirish) ko'rinishiga, so'ngra tovushli signallar ikkilik impulslariga (demodullashtirish) o'zgartiriladi. Turli modemlar ma'lumotlarni uzatish tezligi, ma'lumotlarni uzatish uzoqligi va «intellektual qobiliyatlari» ga qarab bir-biridan farqlanadi. Oddiy modemlar o'zining sodda funksiyasi- modullashtirish va demodullashtirishni bajaradi.

Boshqa murakkabroq modemlar o'z dasturiy ta'minotiga ega bo'lib bir qator qo'shimcha funksiyalarni bajarishga qodir:

-telefon raqamlarini avtomatik terish;

-ma'lumotlar uzatish tezligini avtomatik boshqarish va boshqalar. Ba'zi bir modemlar ma'lumotlarni bir yo'nalishda uzatishi yoki qabul qilishi (simpleks rejim) mumkin, boshqalari esa ikki yo'nalishda ham (poludupleks rejim) ishlay oladi. Modemlar konstruksiyasiga ko'ra tashqi qurilma sifatida yoki kompyuter ichiga o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

Lokal tarmoq - axborot va dasturiy resurslardan birgalikda foydalanish maqsadida o'zaro birlashtirilgan kompyuterlar majmuidir. Bunday tarmoqlarning «lokal» deyilishiga sabab: tarmoq tarkibidagi kompyuterlar asosan bir xona, bir bino yoki yonma-yon joylashgan binolarda joylashgan bo'ladi va o'zaro bog'lanadi. Avtomatlashtirilgan kutubxonadagi lokal tarmoq tarkibiga printerlar, CD tower, skanerlar va boshqa tashqi qurilmalar kiritiladi. Bu hol avtomatlashtirilgan kutubxonalarda texnika vositalaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadi.

- uzoqda joylashgan elektron axborotlar resurslariga kirish;
- kutubxona xodimlari orasida tezkorlik bilan ma'lumot almashish;
- lokal tarmoq boshqa katta tarmoqlarga ulangan bo'lsa, bunday holda bir kutubxonada lokal tarmoqdan foydalanuvchilar boshqa kutubxonadagi lokal tarmoqdan foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Lokal tarmoqning yana bir muhim jihati borki, u ham bo'lsa faqatgina axborot resurslaridan birgalikda foydalanishi emas, balki avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari dasturiy ta'minotidan ham birgalikda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida xarajatlarni kamaytiradi. Har bir foydalanuvchi uchun aloxida dastur paketi sotib olish o'rniga, bir dasturdan lokal tarmoq orqali foydalanish arzonga tushadi. Bundan tashqari amaliy dasturlar paketini va ma'lumotlar bazasini serverda saqlash qulay. Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimining yangi varianti yaratilganda tizimning eski varianti olib tashlanadi va yangisi tezda o'rnatiladi. Bu ish ham lokal tarmoq ishlab turganda juda tez boshqariladi.

Lokal tarmoq kam xarajat sarflab, doimo tarmoqni kengaytirish imkonini beradi. Tarmoqqa qo'shiladigan har bir kompyuter o'z hisoblash qudratiga ega va uni tarmoqqa ulash qiyinchilik tug'dirmaydi. Lokal tarmoqqa, tarmoq resurslari va ma'lumot ayirboshlash tezligini oshirish maqsadida qo'shimcha serverlar ulash mumkin. Lokal tarmoqning muhim komponentlaridan biri bu tarmoq platasidir.

Plata- bu axborotlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi maxsus qurilma. Odatda, bunday plata tarmoq interfeys platasi kompyuter shinasining kengaytirilgan bo'sh o'rniga o'rnatiladi, ma'lumotlarni uzatuvchi kabel esa shu plataga o'rnatiladi. Bugungi kunda tarmoqda ishlatiluvchi bir necha tipdagi kabellar mavjud. Bularga signalni modullashtirmaydigan koaksil kabel, signallarni modullashtiruvchi koaksil kabel va optik tolali kabel kiradi. Bu kabellar ma'lumotlarni uzatish tezligi, uzatish uzoqligi va ulanish usullari bilan farqlanadi.

Axborot resurs markazlari uchun zamonaviy texnik vositalar.

AKM va ARM lar zimmasiga aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, kitobxonlarning ilmiy, ta'lim, axborot, madaniyat va biznes sohasidagi qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tezkorlik bilan qondirish; kitobxonlarga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan o'z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish yo'li bilan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga o'tishni ta'minlash; yig'ma elektron katalog yordamida axborot resurslarini birlashtiruvchi elektron kutubxonalar va ma'lumot

bazalarini yaratish kabi bir qator vazifalar yuklatilgan. Albatta, bunday vazifalarni bajarish uchun AKM va ARM lar texnik, dasturiy, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik hamda kadrlar ta'minotiga ega bo'lishi kerak. An'anaviy kutubxonalar uchun kompyuter va boshqa bir qator texnika vositalarini sotib olish, kutubxonada lokal tarmoq barpo qilish hamda internet tarmog'iga ulanish bilangina cheklanib, AKM va ARM yaratdik deb o'ylash xatodir, zero zamonaviy talablarga javob beruvchi AKM va ARM larini barpo qilish o'ta murakkab va ancha mablag' hamda vaqt talab qilinadigan ishlardandir. Bugungi kunda kutubxonalar uchun faqat texnika vositalarini sotib olish, o'rnatish, kutubxonada lokal tarmoq yaratish, Internet tarmog'iga ulash bilan avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimlari yaratdik deb o'ylash noto'g'ridir.

Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda dasturiy ta'minotning o'rni beqiyosdir. Bizga ma'lumki, avtomatlashtirilgan axborot - kutubxona tizimi (AAKT) o'zaro yagona ma'lumotlar bazasi orqali bog'langan bir necha (dasturiy, texnik, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik va kadrlar) ta'minotlardan iborat. Ana'anaviy kutubxonada ushbu ta'minotlar tizimini yaratmasdan turib, AKM va ARM yaratish hech qanday samara bermaydi. AKM va ARM lar barpo qilinishi va ular to'laqonli faoliyat yuritishlari uchun kutubxonadagi quyidagi asosiy jarayonlar avtomatlashtirilishi zarur:

- kutubxonaga qabul qilinayotgan yangi hujjatlarga avtomatik tarzda (texnik va ilmiy) ishlov berish;
- kartotekalarni, nashrlar ro'yxatini, buyurtmalarni, xatlarni, hisobot hujjatlarini tayyorlash;
- qabul qilinayotgan hujjatlarning ma'lumotlar bazasini yaratish;
- turli mavzudagi adabiyotlar arxivini yaratish va undan nusxa olish bo'yicha operatsiyalarni bajarish;
- kitobxonlar so'roviga mos holda bibliografik tasvirning barcha elementlari bo'yicha qidiruvni bajarish;
- kutubxonaning axborot va davriy nashrlarining ma'lumotlar bazalari orqali xizmat ko'rsatish;
- jurnal maqolalarining bibliografik tavsiflari massivini yuritish;
- elektron ma'lumotnomalar yaratish;
- berilgan adabiyotlarni nazorat qilish;
- kitobxonlar va ularning formulalarini hisobga olish;
- berilgan adabiyotlarni kitobxonning formulariga avtomatik tarzda yozib qo'yish;
- kitoblarni o'z vaqtida qaytarib berilishini nazorat qilish;
- kutubxona elektron katalogini shakllantirish, yuritish.

Yuqorida ko'rsatilgan kutubxonadagi asosiy jarayonlar avtomatlashtirilgach AKM va ARM larida quyidagi imkoniyatlar paydo bo'ladi:

- axborot qidiruvi tezligi oshadi;
- ma'lumotlarni bir marotaba kiritish va ulardan hujjatlarni ko'p maqsadli qidirishda foydalanish, tanlangan axborotlarni bosib chiqarish, ma'lumotlar massivlarini boshqa foydalanuvchilarga uzatish, nashrlarni tayyorlash va boshqalar;
- turli belgilariga ko'ra va ularning kombinatsiyalari yordamida qo'shimcha kartoteka va ko'rsatkichlardan foydalanmay ko'p aspektli qidiruvni bajarish;
- o'z kutubxonasidagi kompyuterdan foydalanib, tarmoq va kommunikatsiya vositalari yordamida boshqa kutubxona kataloglaridan va yig'ma katalogda qidiruvni bajarish. Katta hajimdagi ma'lumotlar bazalari joylashgan optik disklarda qidiruvni bajarish va kerakli ma'lumotlarni olish;
- kutubxona fondini butlashda nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlarining ma'lumotlar bazalari asosida buyurtmalarni avtomatik ravishda shakllantirish va ularni bajarilishini tashkil qilish;
- kutubxonadagi barcha jarayonlarni, jumladan, kitobxonalariga xizmat ko'rsatishni ham, hisobga olish va kutubxona statistikasini yuritish;
- kutubxona kataloglarini bir necha nusxada ishonchli saqlash;
- kutubxonaga qabul qilinayotgan hujjatlar oqimiga ishlov berish va fondni butlash xarajatlarini qisqartirish;
- yangi axborot manbalari jalb qilish hisobiga iste'molchilarga xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish.

Kutubxonadagi barcha asosiy jarayonlar (axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qidirish, uzatish) avtomatlashtirilgach elektron kutubxona yaratish uchun zamin hozirlangan bo'ladi va barcha asosiy kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirgan kutubxona Internet yoki Intranet orqali Elektron kutubxona xizmatini yo'lga qo'ya oladi. Eng asosiysi, kutubxonalarni avtomatlashtirish, kitobxonlarini Vatan va jahon axborotlar fazosiga chiqishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, kutubxonalarni avtomatlashtirish jamiyatni axborotlashtirishning muhim bir bosqichi ekan.

Bugungi kunda kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan bir qator kutubxonalarni avtomatlashtiruvchi tizimlar mavjudki, ularda quyidagi funksional bo'limlar mavjud:

- kataloglashtirish, elektron katalog (EK), ma'lumot-bibliografik xizmat;
- optik disklardagi yoki boshqa kutubxonalaridagi EK larning ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda, bibliografik xizmat ko'rsatish;

- kitobxonlarga xizmat ko'rsatish (kitobxonlarni ro'yxatga olish, kitob berish, qaytarib olish va boshqalar);
- kitob almashishni ham o'z ichiga oluvchi fondni butlash;
- davriy nashrlarni ro'yxatga olish va unga mos EK ni yuritish;
- kutubxonalararo abonement;
- avtomatlashtirilgan tarzda bibliografik nashrlarni tayyorlash (katalog kartochkalarini ham tayyorlash);
- kutubxonani boshqaruv (hisobga olish, statistika, kadrlar, buxgalteriya va boshqalar).

Kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlarni avtomatlashtirish AKM va ARM barpo qilishda muhim bosqich hisoblanadi, odatda dastlab, kutubxona fondini o'zida aks ettiruvchi elektron katalog bazasini shakllantirish bilan ish boshlanadi.

Keyingi yillarda RFID (Radio frequency identification - radio to'liqlik identifikatsiya) texnologiyasini axborot resurs markazlarida tatbiq qilish to'g'risida ko'plab axborotlar e'lon qilinmoqda.

RFID texnologiyasi mohiyati bo'yicha bir oz shtrix kod texnologiyasiga o'xshab ketadi, ammo RFID ning bir qator afzalliklari bor. Rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida ishlatilayotgan shtrix kod texnologiyasi o'z vaqtida kutubxonachilarga beminnat yordam ko'rsatib kelgan, shtrix kod texnologiyasi yordamida kitob berish va qaytarib olish jarayonlari tezlashgan, xatolar soni sezilarli darajada kamaygan. Bularning barchasi, kitobxonlarga berilayotgan va qaytarib olinayotgan har bir kitob to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'lda yozish zaruratini cheklash va ayni paytda bu operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga avtomatik ravishda kiritish mikoniyatini berar edi. Bu jarayonlarni avtomatlashtirishda shtrix kod texnologiyalaridan unumli foydalanilgan. Mazkur texnologiya yordamida kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda muhim bir muammo hal qilindi, ya'ni kitob berish va qaytarib olish jarayonlari, har bir kitobga biriktirilgan shtrix kod shaklidagi axborotlarni skaner qurilmasi yordamida o'qish orqali, avtomatlashtirildi.

Dastlab, shtrix kod texnologiyalarini kutubxona jarayonlariga tatbiq qilish, kutubxonadagi barcha jarayonlarni avtomatlashtirgandek tuyuldi. Ammo, kutubxonalarda avtomatlashtirilmagan yana ikki jiddiy muammo bor ediki bulardan birinchisi kutubxonalarda o'tkaziladigan inventarizatsiya jarayoni, ikkinchisi esa KBK, UDK yoki boshqa biror bir klassifikatsiyalash tizimi asosida joylashtirilgan fondagi o'z joyiga qo'yilmagan kitoblarni qidirish va o'z joyiga qo'yish muammosi edi. Kutubxonachilarga ma'lumki kutubxona fondidagi har bir kitob o'z (adresiga) o'rniga ega, o'z o'rniga qo'yilmagan kitob odatda kitobxonlar uchun yo'qotilgan hisoblanadi va u navbatdagi inventarizatsiya paytida topiladi va

o'z joyiga qo'yiladi. Bundan tashqari, keyingi paytda ko'plab kutubxonalar "ochiq fond" tartibida ishlamoqdalar. Bunday holda fondlardan kitoblarning yo'qolishi ko'payadi, ya'ni kitoblarni "kitob o'g'rilaridan" himoya qilish ehtiyoji tug'iladi. Bunday muammolarni shtrix kod texnologiyasi hal qila olmas edi.



1.1. Rasm. RFID yorlig'i

Fondda, bevosita har bir kitobga kontaktsiz, ma'lum bir masofadan turib identifikatsiyalash orqali inventarizatsiya o'tkazish, inventarizatsiya jarayonini tezlashtirishning yagona usuli hisoblanadi. Kutubxona fondini inventarizatsiya qilish bu kutubxonada eng uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda tokchadagi har bir kitob qo'lga olinib u identifikatsiya qilinadi va o'z joyiga qo'yiladi. Demak, kutubxonadagi har bir kitob qo'l bilan ushlanib, tegishli ma'lumotlar taqqoslanib so'ngra kitob o'z o'rniga qo'yishi kerak. Kutubxona fondida o'n minglab kitob bo'lgan holda inventarizatsiya bir necha oyga cho'zilishi mumkin.

Shunday qilib, kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda shtrix kod texnologiyalaridan foydalanish ham o'z imkoniyatlari chegarasiga yetdi. Mazkur texnologiya bugungi kunda zamonaviy kutubxonalar oldida turgan muammolarni hal qila olmay qoldi. RFID texnologiyasi shtrix kod texnologiyalaridagi barcha yutuqlarni o'zlashtirgan holda, ular yecha olmagan muammolarni hal qilishga kirishdi. RFID texnologiyasi quyidagi prinsipda ishlaydi: har bir kitobga radiochastotali metka yopishtiriladi, bu metkada unikal identifikasion kod saqlanadi va kutubxonaning AAKT dagi aniq bir kitobga biriktiriladi. Maxsus qurilma yordamida metkalar identifikatsiyalanganda o'qish qurilmasi kitob to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda kompyuterga uzatadi. RFID texnologiyasidagi afzalliklardan biri shundaki, ma'lumotni o'qish qurilmasi (rider) bir paytning o'zida bir necha metkani o'qiy oladi, bunda metkalar to'g'ridan to'g'ri riderning "ko'rish zonasida" bo'lishi shart emas, bu hol kitob berish jarayonini tezlashtiradi.



1.2. Rasm. RFID reader.

Ma'lumotlarni avtomatik ravishda o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan skaner qurilmalaridan foydalanganda, shtrix kod skanerning ko'rish zonasiga aniq o'rnatilishi kerak edi. RFID texnologiyasi yordamida kitob berish va qaytarib olish jarayonlari avtomatlashtirilganda, kitobxon chiptasini skaner qurilmasi orqali o'qish, har bir kitobni alohida qo'lga olib, uni skaner orqali o'qishga ehtiyoj qolmaydi. RFID qurilmasi bir yo'la bir necha kitobni va kitobxon chiptasini avtomatik tarzda o'qiy oladi va kitoblarni kitobxonning elektron formulyariga yozib qo'ya oladi hamda berilayotgan kitoblardagi "o'g'rilashga qarshi" funktsiyani faolsizlantiradi. RFID texnologiyasini kutubxonadagi inventarizatsiya jarayonlarini tezlashtirishda muvofaqiyat bilan qo'llash mumkin. Bunda stellaj tokchasidagi har bir kitobni tokchadan olish, undagi shtrix kodni skaner yordamida o'qish, kitobni o'z joyiga qo'yish operatsiyalari o'rniga, stellaj tokchalari yonidan rider qurilmasi bilan bir marotaba o'tish kifoya qiladi. Rider tokchadagi barcha kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni kompyuterga uzatadi. Umuman olganda, RFID texnologiyasidan foydalanish kutubxonalagi inventarizatsiya jarayonini 20 marta qisqartirish imkoniyatini berar ekan.



1.3. Rasm. Inventarizatsiyalash jarayoni.

O'z faoliyatini "ochiq fond" tartibida tashkil etgan kutubxonalarda fondni himoya qilish uchun maxsus RFID eshik o'rnatilishi kifoya. Bu eshik, kutubxonadan ruxsatsiz olib chiqilayotgan har bir kitobga nisbatan tovush yoki nurli signal berish orqali e'tibor qaratadi. Eshik kutubxonaning AKAT ga ulangan holda kompyuter ekranida kimning qanday kitob olib chiqayotganligi aks etadi. Bunday holda fondni o'g'rilashga qarshi standart metkalar bilan ta'minlashga hamda bunday metkalarni faolsizlantiruvchi va faollashtiruvchi qurilmalarga ham hojat qolmaydi. Radiochastotali metka xotirasidagi sektor o'g'irlashga qarshi funktsiyani ham bajaradi.



1.4. Rasm. RFID darvozasi.



1.5. *Rasm. Kitobni qayratib olish qurilmasi.*

RFID tizimi ko'pdan beri jahondagi juda ko'p kutubxonalarda muvofaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Bu sohadagi eng yirik loyiha Singapurdagi milliy kutubxonada amalga oshirilgan. Bu yerda kutubxonani avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi RFID tizimi asosida amalga oshiriladi.

Kutubxona avtomatlashtirilgan kitob berish va kitoblarni qaytarib olish imkoniyatini beruvchi stansiyalar bilan ta'minlangach, kitobxonlar tomonidan tanlangan kitoblar mustaqil ravishda rasmiylashtiriladi (kitobxon tomonidan tanlangan kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar, kitob berish stansiyasi yordamida, kitobxonlarning elektron formulyariga yozib qo'yiladi). Kitoblarni qaytarib olishga mo'ljallangan robot-saralagich mustaqil ravishda kitoblarni saralaydi, kutubxonachi esa kitoblarni tokchalaga joylashtiradi xolos.

Vatikan kutubxonasi fondini inventarizatsiya qilishning o'zoq vaqtga cho'zili RFID texnologiyasini tatbiq qilishga olib kelgan. Bu kutubxonada inventarizatsiya jarayoni ikki oy davom etib, bu ishga ko'plab xodimlar jalb qilingan. Kutubxonada RFID texnologiyasini tatbiq qilingach, ko'p millionli fondni inventarizatsiya qilish, ikki xodim tomonidan bir kunda bajarilgan. Vatikan kutubxonasidagi kitoblarning ko'pchiligi qadimiy kitoblar bo'lgani uchun ham ularni o'z o'rnidan siljitmay inventarizatsiya o'tkazish juda muhim bo'lgan. 2007 yildan boshlab, Germaniyaning Gamburg shahridagi ommaviy kutubxonalarda RFID texnologiyasidan foydalanish rejalashtirilmoqda. Yillik kitob aylanishi 2 mln. birlikdan iborat bo'lgan kutubxonalarda hujjatlarni berish va qaytarib olishni avtomatlashtiruvchi terminallar o'rnatilishi ko'zda tutilmoqda. Terminallar dastlab kutubxonaning bo'limlarida keyinchalik esa markaziy binoda o'rnatiladi. Kutubxonadagi barcha hujjatlarga (kitoblar, jurnallar hamda DVD disklar) 13,56MHz chastotada ishlovchi passiv RFID-metkalar yopishtiriladi. Kitobxonlar kutubxonaning ixtiyoriy bo'limidagi "ochiq fondan" o'zlariga kerakli kitoblarni mustaqil ravishda tanlash va qaytarib topshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda RFID texnologiyasidan jahondagi juda ko'plab kutubxonalar foydalanishmoqda. 2006 yilning birinchi yarmida turli tipdagi 250 dan ortiq kutubxonalarda mazkur texnologiyalar tatbiq qilingan. Shunday qilib, kutubxona texnologiyalari avtomatlashtirishda AAKT laridan foydalanish quyidagi kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi:

- kitobxonlar elektron formulyarini yaratish;
- kutubxona elektron katalogini shakllantirish va foydalanish;
- kitoblarga buyurtma berish;
- berilgan buyurtmalarni bajarish;
- turli sabablarga ko'ra rad etilgan buyurtmalar tahlili;

- kitob berish va qaytarib olishni nazorat qilish;
- fondni butlashga oid masalalar;
- masofadan turib elektron katalogdan foydalanish va buyurtmalar berish;
- korporativ kataloglashtirish;
- kutubxonani boshqarish va boshqalar.

Nazorat uchun savollar

1. Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minotiga nima?
2. Qanday qurilmalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin?
3. RFID qanday texnologiya?
4. RFID va Shtrix kod texnologiyalarini taqqoslang?
5. RFID texnologiyasi bilan ishlaydigan qanday qurilmalarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. "Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>

2-amaliy mashg'ulot: Axborot kutubxona muassasalarining dasturiy ta'minoti. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasalarining dasturiy tuzilmasi

Ishdan maqsad: Axborot kutubxona muassasalarini dasturiy ta'minotini o'rganish. Foydalanuvchularga xizmat ko'rsatishda dasturiy vositalarning samaradorligini aniqlash. Axborot-kutubxona muassasalari uchun maxsus dasturiy vositalar. Dasturiy vositalar yordamida xodimlarning avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlarini yaratish.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti


Talabalarga fan bo'yicha nazariy bilimlarni o'qitishda muammoli, ochiq munozaraviy darslar o'tish va bunda slaydlardan foydalanish samarali bo'ladi. Talabalar olgan bilimlarini mustaxkamlash uchun fan bo'yicha taklif qilingan adabiyotlar bilan bir qatorda Internet tarmog'idagi yangi ma'lumotlardan foydalanadilar. Tajriba mashg'ulotlarda talabalar asosan zamonaviy kompyuterlardan, ulardagi yangi axborot tizimlaridan foydalanadilar. Zamonaviy integral axborot-kutubxona tizimlari bilan bog'liq laboratoriya mashg'ulotlari dasturda sanab o'tilgan tizimlarning "demo" variantlarida amalga oshiriladi (bu tizimlarning "demo" variantlari mavjud). Kataloglashtiruvchining AIO' dan foydalanib EK bazasini to'ldirish maxsus yaratilgan elektron darslik asosida o'rganiladi. Bu elektron darslikda 20 ko'rinishdagi hujjatlarning bibliografik tasvirini yaratish uslubi keltirilgan.

Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o'rni (AIO')

Kataloglashtiruvchining AIO' asosan tizimning elektron katalogi (EK) bazasini shakllantirishga mo'ljallangan bo'lib bu yerda kutubxona fondiga kelib tushayotgan adabiyotlarga bibliografik ishlov berish va kitobxonlarning elektron formulari yaratiladi. Ma'lumotlar EK bazasiga klaviatura yordamida qo'lda terilib, kiritiladi va ayni paytda EK bazasini shakllantirishda avvaldan tayyorlangan bibliografik yozuvlar bazasidan o'z EK bazasini yaratishda foydalanish imkoniyati ham yaratilgan. Bu yerda shuni alohida qayd qilish lozimki, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi shu paytgacha xalqaro talablarga mos holda yaratilgan 150 000 dan ortiq elektron bibliografik resurslaridan samarali foydalanishga keng yo'l ochilgan. Demak, **KARMAT tizimi bilan ishlaydigan AKM, ARM va kutubxonalar o'z EK bazalarini shakllantirishda tayyor elektron bibliografik resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida EK yaratish jarayonini**


tezlashtiradi, uning sifatli bo'lishiga olib keladi. Fondagi bir kitobning bibliografik tavsif elementlarini EK bazasiga kiritish uchun o'rtacha 15-25 daqiqa sarf bo'layotganligini nazarda tutadigan bo'lsak KARMAT tizimidan foydalanishning naqadar afzalligini tushunib yetamiz. Tizim Web texnologiyalarining so'nggi yutuqlaridan foydalanib yaratilganligi tufayli KARMATning maxsus moduli AKM, ARM va kutubxonalarning elektron bibliografik resurslarini Internet tarmog'ida taqdim qila oladi.

Foydalanuvchilarni ARMning elektron katalogida ro'yxatdan o'tkazish
KARMAT-M tizimida foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish (kitobxonning elektron formulayini yaratish) "Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o'rnida" amalga oshiriladi. Kataloglashtiruvchining ish o'rnini ishga tushirish uchun "Login" va "Parol" maydonlariga mos ravishda "cat" va "11" kiritiladi (2.1-rasm).





2.1-rasm.

"Kiritish" tugmasi bosilgach quyidagi interfeysga ega bo'lamiz (2.2-rasm).



2.2-rasm.

Paydo bo'ladigan menyuning "Katalogkashtirish" qismidan "Kitobxonlar" tugmasiga sichqoncha bilan chertamiz va kitobxonlarning elektron formulayini yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu yerda ARMga a'zo bo'lgan kitobxonlarning ro'yxatini ko'rishimiz mumkin. Ro'yxatdagi ma'lumotlarga zarur hollarda tuzatishlar kiritishimiz mumkin, buning uchun o'ng tomondagi "taxrirlash"  belgisi ustiga sichqoncha bilan chertsak maxsus deraza ochiladi va u yerda kerakli tuzatishlarni bajarishimiz mumkin. Kitobxonlarni ro'yxatdan o'chirish uchun kitobxon familiyasining o'ng tomonida turgan "o'chirish"  tugmachani bosamiz va bergan buyruqni tasdiqlaymiz.

YAngi kitobxon to'g'isidagi ma'lumotlarni EK bazasiga kiritish yoki

kitobxonning elektron formulyarini yaratish uchun Sahifada keltirilgan “Yangi kitobxon qo‘shish” tugmasini bosamiz va keyingi shaklga ega bo‘lamiz.

Kitobxonning avtomatlashtirilgan ish o‘rni

1 Kitobxonning shaxsiy elektron kabinet

Kitobxonning avtomatlashtirilgan ish o‘rni – bu dasturiy texnik kompleks bo‘lib, unda kitobxon EK dan foydalanib ARM fondidagi adabiyotlar to‘g‘risida ma‘lumot olishi, qidirib topilgan adabiyotlarga buyurtmalar berishi va ularning bajarilishi to‘g‘risida axborotlar olishi mumkin. EKning bir necha ma‘lumotlar bazalaridan axborotlar qidirish imkoniyati ham mavjud. “Kitobxonning AIO”ning eng muhim modullaridan biri KSHEK hisoblanadi va u ARM bilan kitobxon orasidagi hamkorlikni operativ tarzda bog‘lashga xizmat qiladi.

Kitobxonning shaxsiy elektron kabinet (KSHEK), lokal va global tarmoqlarda ishlay oladi. Kitobxon o‘z shaxsiy elektron kabinet orali AKM, ARM va kutubxonalar EK bazalari bilan tanishib chiqishi, kerakli adabiyotlarni qidirishi, ularga buyurtmalar berishi va berigan buyurtmalarning bajarilishi to‘g‘risida ma‘lumotlarni o‘z shaxsiy kabinet orqali olishi mumkin. Kitobxon o‘z shaxsiy elektron kabinetida elektron resurslarning to‘liq matnini ko‘rishi ham mumkin. U EK bazasidan o‘ziga kerakli ma‘lumotlarni topa olmagan holda u “maxsus buyurtma” orqali EK bazasiga kiritilmagan adabiyotlarga buyurtmalar berish imkoniyatiga ega. Bu holat KARMAT tizimining AKM, ARM va kutubxonalarda samarali tatbiq qilinishiga keng yo‘l ochadi, zero bugungi kunda AKM, ARM va kutubxonalarning ko‘pchiligida xalaqaro talablarga mos bibliografik resurslar yaratish talab darajasida emas, ya‘ni fond to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning juda kam qismi EK bazasiga kiritilgan. KSHEK kitobxonlarga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimining moduli sifatida ham ishlay oladi.

Kitob berish va qaytarib olish bilan shug‘ullanadigan xodimning avtomatlashtirilgan ish o‘rni

Kitob berish va qaytarib olish bilan shug‘ullanuvchi xodimning AIO‘da buyurtmalarning bajarilishi nazorat qilinadi, boshqariladi, KSHEK buyurtmaning qabul qilinganligi, topilganligi to‘g‘risidagi axborotlarni yuborish, kitob berish va qaytarib olish funksiyalari avtomatlashtirilgan. Tizimning bu modulida AKM, ARM va kutubxonalar faoliyati uchun zarur bo‘lgan statistik ma‘lumotlarga ishlov beriladi va maxsus formalarda tegishli jadvallarni bosib chiqarish imkoniyati yaratilgan. Mazkur modul tizimning yagona bibliografik ma‘lumotlar bazasidagi bibliografik ma‘lumotlar statusini o‘zgartirish orqali fondagi kitoblarning “bo‘sh”

yoki “band” ekanligini aniqlaydi. Kitob berish EK orqali buyurtma berish va elektron katalogdan foydalanmay buyurtma berish orqali amalga oshiriladi. Ishni bunday usulda tashkil qilinishi maktab ARM kutubxonachisi uchun juda qulay, sababi o‘quvchi bevosita kitobni polkadan olishi va EK bazasiga o‘z parolini kiritib olingan adabiyot inventar raqamini tegishli maydongan kiritadi va olingan kitob kitobxonning elektron formulyariga yoziladi. Bunday usulda ishlash kitob berish jarayonini tezlashtiradi

Axborot-resurs markazida kitob berish va qaytarib olish bilan shug‘ullanadigan xodimning avtomatlashtirilgan ish joyi kirish uchun “Login” maydoniga “bibl”, “Parol” maydoniga “11” qiymatlarni beramiz.

Administratorning avtomatlashtirilgan ish o‘rni

“Tizimni boshqarish/yuritish” bilan shug‘ullanuvchi xodimning (Adminostratorning) AIO‘da yangi bazalar ochish, kerak bo‘lmaganlarini o‘chirish, tizimdan foydalanuvchilarga (adminstrator, kataloglashtiruvchi, kitobxon va boshqa) tegishli statuslar berish amallari bajariladi. Administratorning AIO‘da bibliografik yozuv elementlarini EK bazasiga kiritish maydonlarini yaratishga mo‘ljallangan maxsus “konstruktor” yaratilganki uning yordamida har qanday MARC formatlar oilasiga kiruvchi ichki yoki kommunikativ format yaratish mumkin. Bu yerdagi universallik ma’lumotlarni bazalarga kiritish uchun ixtiyoriy ko‘rinishdagi ishchi varaqlarni yaratish hamda bibliografik ma’lumotlarni eksport/import qilishga imkoni beruvchi formatlarni yaratishga yo‘l ochadi.

Tizimning interfeysi o‘zbek va rus tillarida yaratilgan bo‘lib uni boshqa tilga tarjima qilish unchalik murakkab ish emas. Maxsus ishlab chiqilgan jadvaldagi so‘zlar tegishli tilga tarjima qilingach tizim interfeysi kerakli tilda ishlay boshlaydi. O‘zbekistonda EK bazasini shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi kataloglashtiruvchilarning malaka darajalarini nazarda tutib va ularga kataloglashtirish paytida yordam berish maqsadida har bir maydonga kiritiladigan ma’lumot uni kiritish tartibi va shakli to‘g‘risida maslahat berib boriladi. Bunday maslahatni olish uchun kataloglashtiruvchi tegishli maydonga sichqoncha bilan chertishi kifoya.

ARM administratorining avtomatlashtirilgan ish o‘rnini ishga tushirish uchun “Login” maydoniga “admin”, “Parol” maydoniga “11” qiymatlar beriladi (2.3-rasm). Bu qiymatlar o‘rniga boshqalarini ishlatish ham ko‘zda tutilgan.

2.3-rasm.

“Kirish” tugmasini bosish orqali tizim administratorining avtomatlashtirilgan ish joyiga kiramiz.

Fondni butlash bilan shug'ullanadigan xodimning avtomatlashtirilgan ish o'rni

Fondni butlash bilan shug'ullanuvchi xodimning AIO'da kutubxona fondini butlovchining standart funksiyalari avtomatlashtirilgan bo'lib bu yerda undan tashqari O'zbekiston kutubxonachilik ishida keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijalari hisobga olingan. Masalan, maktab axborot-resurs markazlari fondini butlash masalasini yechish uchun professor M.A. Rahmatullayev tomonidan taklif etilgan texnologiyadan foydalanilgan. AKAT foydalanish AKM, ARM va kutubxonalardagi fondni butlash jarayonlarini ham tizimli tahlil qilish orqali yangicha yondoshuvlarni talab qilmoqda. Bu esa AKM, ARM va kutubxonalardagi an'anaviy kitob yo'lini ham qaytadan ko'rib chiqilishini, bo'limlar ishini qayta taqsimlash masalasini kun tartibiga qo'yimoqda. Fondni butlovchining AIO'ga kirish uchun tizimning “Login” maydoniga “camp”, “Parol” maydoniga “11” qiymatlar beriladi (2.5-rasm).

2.5-rasm.

Fondni butlash bilan shug'ullanuvchi xodimning AIO'da ARMga kelib tushayotgan adabiyotlarga dastlabki ishlov beriladi, ya'ni EK bazasiga ARMga kelib tushayotgan adabiyotlarning bibliografik tasvir elementlari kiritiladi.

Nazorat savollari

1. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti nima?
2. AKM lar uchun qanday milliy dasturiy ta'minotlarni bilasiz?
3. AKM lar uchun ochiq kodli dasturiy ta'minotlar?
4. AKM larning Avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlarini sanang?
5. Dasturning informatsion-metodik ta'minoti nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. "Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>

3-amaliy mashg'ulot. Axborot kutubxona muassasalarinning axborot ta'minoti. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona muassasalarinning axborot tuzilmasi

Ishdan maqsad: Axborot kutubxona muassasalarini axborot ta'minotini o'rganish. Axborot-kutubxona muassasalari uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Elektron kitoblarni yaratish.

Zamonaviy kutubxonada xizmat ko'rsatish tizimi va avtomatlashtirilgan kutubxonaning muhim tarkibiy qismi axborot ta'minoti hisoblanadi. Axborot ta'minoti katta xarajatlar talab etadi, unga sarflangan xarajatlar kutubxonani avtomatlashtirishga ketadigan xarajatlardan (hisoblash texnikasini sotib olish, dasturiy ta'minot, dastur tuzish va uni sozlash) oshib ketadi. Agarda axborot ta'minotini tashkil etish, uning tarkibi va tashkil qiluvchilar yetarlicha malakali bajarilmagan bo'lsa, ya'ni xalqaro talablar va standartlarga rioya qilinmagan, axborot texnologiyalari rivoji hisobga olinmagan bo'lsa, sarflangan xarajatlar befoyda ketadi, O'z axborot resurslarini yaratishga kirishgan kutubxonalar ko'p hollarda quyidagi xatoliklarga yo'l qo'yadilar:

- kutubxona formatlari yaratishda xalqaro talablarga rioya qilmaslik;
- boshqa kutubxonalar, kutubxona assotsiatsiyalari, tadqiqotchi guruhlar tajribalarini o'rganmaslik.

Har bir kutubxona tomonidan yaratilgan kutubxona formati, kataloglar yaratish va ularga ishlov beruvchi dasturlar bir qarashda mazkur kutubxonani qanoatlantiradi, ammo yaratilgan axborot-til ta'minoti boshqa kutubxonalar va xalqaro kutubxonalar tizimi bilan mos kelmasa, jahon axborot resurslariga chiqadigan yo'l berkitiladi. Kutubxonada to'liq matnli ma'lumotlar bazasi yaratish uchun darsliklar, jurnallar, maqolalar skaner yordamida kompyuter xotirasiga kiritilmoqda, ammo kiritilgan ma'lumotlar qanday qilib qidiriladi? Bu haqda jiddiy o'ylab ko'rilgan emas. Agarda kiritilgan axborot hajmi kichik bo'lsa, uni qidirish katta qiyinchilik tug'dirmaydi, ammo odatda salmoqli ma'lumotlar bazasi uzoq vaqt va uzluksiz to'ldirilib, rivojlantirilib boriladi. Agarda siz mashina xotirasiga bir necha yozuv kiritgan bo'lsangiz bu hali qandaydir bir ma'lumotlar bazasi yaratildi, degani emas. Bu oddiy fayllar yig'indisidir. Ma'lumotlar bazasi-bu juda jiddiy tushuncha. Ma'lumotlar bazasida asosiy tushuncha bu-axborotning mantiqiy tartibga ega ekanligidir, ya'ni ma'lumotlar bazasi komponentlari aniq bir belgilarga ko'ra tizimlashtirilgan va u mantiqiy aloqaga ega.

Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar orasidagi mantiqiy bog'liqlik tizimda biz qanday masala yechayotganimizga bog'liq bo'ladi. Bu yerdan ko'rinadiki, ma'lumotlar mantiqiy tarkibi va EHM da ma'lumotlarni fizik ifodalovchi orasida ularni bog'lovchi dastur zarur ekan. Bunday dastur ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (SUBD) deyiladi. Axborot ta'minotida asosiy tushuncha sifatida «axborot» qaraladi. Bu tushunchaning o'zi falsafa kategoriyalariga tegishlidir. Ba'zi bir olimlar axborot tushunchasini ob'ektiv olamning aksi sifatida qabul qilishsa, ba'zilar esa uni aniq bir boshqaruv ob'ekti haqidagi ma'lumot deb qarashadi. Biz axborot tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan qaramaymiz. Bizni ko'proq amaliy jihat qiziqtiradi, ya'ni axborotni kompyuter xotirasida saqlash, formallashtirish, ishlov berish va kutubxona ma'lumotlar bazasini yaratish. Axborot ta'minotini ishlab chiqishda, uning ko'rinishi qanday va u qanday uzatiladi, saqlanadi, uni qanday guruhlariga ajratish mumkin, ya'ni qanday tasniflanishini aniqlash muhimdir. Axborot tasnif guruhlari ularni mashina tashuvchilarda ratsional joylashtirish va ishlov berish jarayonlarini tashkil qilishga yordam beradi. Kompyuter yordamida turli axborot tashuvchilarda saqlanayotgan va uzatilayotgan formallashtirilgan axborotlar «ma'lumotlar» deyiladi. Avtomatlashtirilgan kutubxona axborot ta'minoti mashinadan tashqi va mashina ichki ta'minotlarga bo'linadi.

Mashinadan tashqi axborot ta'minoti o'z ichiga:

- bibliografik va boshqa axborotlarni tasniflash va kodlash tizimini;
- me'yoriy-spravka va uslubiy hujjatlarni oladi;

Mashina ichki axborot ta'minoti o'z ichiga:

- ma'lumotlarni yig'ish, yuritish, tashkil etish vazifalarini bajaruvchi dastur tizimini;
- mashina tashuvchilarda joylashgan ma'lumotlar massivlari: elektron kataloglar, annotatsiyalar va to'liq matnli axborotlar bazasini oladi.

Korporativ kutubxona tizimlari uchun ma'lumotlar bazasi yaratishda bir qator muammolar mavjud:

1. Ortiqcha axborotlar mavjudligi.

Korporativ kutubxona tizimlarida umumiy ma'lumotlar bazasi yaratilayotganda tizimda ishtirok etuvchi kutubxonalarga tegishli ma'lumotlar odatda takrorlanib tasvirlanadi va sturukturalanadi. Buning natijasida axborot bazasi birini hisobiga ikkinchisining ehtiyoji qondiriladi, bu hol korporativ tarmoqlarda ham ro'y beradi.

2. Qarama-qarshilik.

Kutubxona tizimlaridagi qarama-qarshilik asosan ma'lumotlarni takrorlash (dublirovaniye) hisobiga bo'ladi. Kutubxonalar ichidagi va korporativ kutubxona tarmoqlari orasidagi faoliyatda kelishilmagan ishlar (elektron kataloglar va ma'lumotlar bazasi yaratishda) qarama-qarshi axborotlar paydo bo'lishiga olib keladi.

3. Standartlashtirish va unifikatsiyaning qoniqarsizligi. Kutubxona tizimlarida kutubxona formatlariga, standartlariga va unifikatsiyalashgan formalarga rioya qilish muhim talablardan hisoblanadi. Bu talablarni bajarish faqat o'z axborot resurslarini yaratishda emas, balki xalqaro kutubxona-axborot tizimlari integratsiyasida, xalqaro axborot tizimlariga kirishda ham talab etiladi. Axborot ta'minoti dasturlarini yaratuvchi tashkilotlar xarajatlarini kamaytirish maqsadida o'zlariga qulay va sodda bo'lgan axborotlarni tasvirlash standartlarini yaratgan tashkilotlar «ikki barobar xarajat qiladilar», (ular axborotlar qamalida bo'ladilar). Ularni tushunishmaydi, ular ham boshqalarni tushuna olmaydilar.

Axborot ta'minoti:

Har qanday kutubxonani avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizim samarali ishlashi uchun u tegishli axborotlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Masalan, IRBIS tizimining axborot ta'minoti quyidagi ma'lumotlar bazalaridan iborat:

- fondni butlash - CMPL;
- elektron katalog bazasi - IBIS;
- kitobxonlar to'g'risidagi ma'lumotlar - RDR;
- byurtmalar bazasi - RQST;
- ruknlar bazasi - GRNTI - HELP;
- avtoritet fayllar bazasi - ATHRA va boshqalardan iborat.

Bunday ma'lumotlar bazalarini shalkllantirmasdan turib, KAT samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. O'z navbatida, ma'lumotlar bazalariga kiritilayotgan axborotlar standartlashtirilgan bo'lishi zarur. Masalan, tizimda foydalaniladigan so'zlarning (atamalarining) qisqartmalari. Rossiyada ruscha so'zlarning qisqartirilgan shaklda ishlatish standarti qabul qilingan va u IRBIS tizimida foydalaniladi.

Elektron kitoblar

Insoniyat o'z umri davomida imkon qadar ko'p axborotlarni kichik hajmga joylashga harakat qilgan. Avval papirusga yozilgan kitoblar paydo bo'ldi, so'ngra pergamentdan foydalanildi. Keyinchalik (1456 yil, Gutenberg) kitob bosish davri keldi. Bugun biz kitoblarning eng so'nggi avlodi - elektron kitoblar to'g'risida gapirmoqdamiz.

Elektron kitob yaratish g'oyasi ko'p vaqtdan beri mutaxassislarni qiziqtirib kelgan. Elektron kitob yaratish tarixi 1945 yildan boshlanadi. Bu paytda futurist

Vanavar Bush tomonidan "kitoblarni, yozuvlarni va xabarlarni saqlash, ishlov berish, uzatish" imkonini beruvchi xususiy qurilmalar yaratish haqida fikrlar bildirilgan edi.

Elektron nashriyot ishi rivojining keyingi bosqichi 1968 yilga to'g'ri keladi. Ted Nelson tomonidan "gipertekst"ning yaratilishi, ya'ni World Wide Web asosining yaratilishi ayni paytda matnlarni Internet da saqlashning va hozirgi paytda yaratilayotgan elektron kitoblarning bosh formatining yaratilishiga asos bo'ldi.

1968 yil talaba Alan Kay tomonidan kitob vazifalarini bajaruvchi DynaBook portativ interaktiv kompyuter loyihasi ishlab chiqildi. Yigirma yildan keyingina ushbu loyiha tijoratda amalga oshirildi. 1971 yildan boshlab Illinois Benedictine College tashabbusi bilan bugungi kunda eng ko'p elektron formatli kitoblarni o'z ichiga olgan Project Gutenberg loyihasi amalga osha boshladi. 1981 yilda bizga ma'lum bo'lgan Ted Nilson "Xanadu" guruhini tashkil qiladi va elektron kitoblar bilan savdo qilishni rejalashtiradi. 1982 yilda Onlayn rejimida ishlovchi FSFnet birinchi elektron jurnal paydo bo'ldi. Unda badiiy asarlar - qisqa fantastik xikoyalar bosildi. Shunday qilib, 1998 yili bir paytning o'zida ikkita qurilma- tom ma'nodagi elektron kitob sotuvga chiqarildi. Bular "SoftBook Reader" va "Rocket eBook" lardir.

SoftBook Reader

SoftBook Reader - bu elektron kitob nimasi bilandir zamonaviy subnoutbukni eslatadi va u o'ziga to'q, badavlat kishilarga mo'ljallangan. Kitob muqovasining sof teridan ishlanganligi va qat'iy ishchan dizayn uni 1998 yilgi eng a'lo tovarlar sarasiga kiritdi. Bunday elektron kitob bahosi 600 A+Sh dollari (yoki 300 dollar + 2 yil davomida har oyda 20 dollardan obuna bo'lish mumkin) qilib belgilandi. Bizning nazarimizda, ancha qimmat bo'lib ko'ringan bu pulga foydalanuvchi barcha funktsiyalarga ega bo'lgan kompyuterga ega bo'ladi.

SoftBook Reader - og'irligi 1,3 kg. bo'lib, standart kitob o'lchamidan salgina kattadir. U monoxrom LSD monitorga (6-8 dyuym), ichiga o'rnatilgan modemga va 8 MV xotiraga ega bo'lib, unda 5000 betli matnni saqlash mumkin. Kerak bo'lgan hollarda Flash-karta yordamida xotirani 50 000 bet sig'adigan qilish mumkin. Batareykalar yordamida elektron kitob 5 soat ishlay oladi.



SoftBook Reader ni sotib olgan har bir xaridor Amerikadagi ommabop kundalik yangiliklar saytiga erkin kirish va yana 100 ta klassik adabiyotlarga bepul ega bo'ladi. Bundan boshqa kitoblar va davriy nashrlar uchun haq to'lanadi. O'rtacha bitta elektron

kitob \$10-25 turadi, bu esa qog'oz kitobga qaraganda \$7-8 arzon demakdir. O'rtacha bitta qog'oz kitob \$15-35 turadi. Bunday narx-navo bizning tasavvurimizda juda katta bo'lib tuyuladi, ammo bir narsani esda tutish lozimki, kitoblar Amerikada hamma vaqt ham arzon bo'lmagan, hatto yumshoq muqovali kitoblar ham (\$15), qattiq muqovali kitoblar ham odatda kam chiqarilgan (\$25-35). Bu narx-navo gazetalarga ham tegishlidir, "Time " ning elektron variantining yillik obunasi \$60, "The Washington Post" ning elektron variantining yillik obunasi \$107 ni tashkil qiladi.

Yaqin kelajakda SoftBook Press ning yangi modelini ishlab chiqish mo'ljallanilmoqda. Uning kengaytirilgan xotirasi (Compact Flash) 100 000 betgacha axborot saqlay oladi (128 MV), Unga, 33,6 K modem, tarmoqa ulanish imkoniyatini beruvchi karta va takomillashtirilgan LCD tipidagi monitor o'rnatilgan.

SoftBook Reader kitobdagi matn bo'yicha qidiruv bajara oladi, is'temolchini qiziqtirgan fragmentlarni belgilab qo'yishi mumkin, gipermatndan foydalanadi, matnda turli illyustratsiyalardan, jadvallardan, diagrammalardan foydalanish imkoniyati bor. Bularning barchasi juda sodda usulda bajariladi, chunki elektron kitob asosida HTML tili yotadi. Bulardan tashqari yaqin oradan boshlab maqolalarni yaratish vositasi Open eBook formati ishlatila boshladiki, u barcha elektron kitoblarga mos keladi.

Rocket eBook

Bu mahsulot dizayn va narxi bo'yicha ancha demokratik bo'lib (1998 yili sovrindor bo'lgan), u \$200 miqdorda baholangan. Rocket eBook imkoniyatlari ham kamtargina. Bu qurilma yoshlar, talabalar, maktab o'quvchilari va umuman olganda kam ta'minlanganlarga mo'ljallangan.



Zamonaviy PDA ni eslatuvchi kitob standart shakldagi kitobdan salgina kichik bo'lib, og'irligi 627 g. va 32 000 sahifani saqlash imkoniyatga ega bo'lgan 4 MV Flash - xotiraga, (1,4 X 7,6) o'lchamdagi suyuq kristalli displeyga ega bo'lib, avtonom ravishda beto'xtov 40 soat ishlay oladi. Nisbatan katta "hajmli" kitob ham mavjud, Bu Rocket eBook Pro bo'lib 15 200 sahifali (16 MV) axborotni saqlay oladigan va kerak bo'lganda xotirasini 32 MV ga yetkaza oladigan qurilmadir.

Rocket eBook ning ishlashi uchun kompyuter talab qilinadi. Kerakli fayllar Internet orqali kitobga ketma-ket port orqali yuklanadi. Rocket Librarian ning rasmiy kutubxonasining manzili: (<http://WWW.rocket-library.com/>). Elektron

kitobning bunday tuzilishi qurilmaning arzonligini ta'minlasa-da, matnlarni yuklashni qiyinlashtiradi va elektron kitobna kompyuterga bog'lab qo'yadi.

Rocket eBook komplekti bilan birga foydalanuvchilar "Alisa v strane chudes" kitobini va 75 000 so'zni o'z ichiga oluvchi "Random House Webster-s eDictionary" ga ega bo'lishadi. Boshqa kitoblarni sotib olish kerak bo'ladi. SoftBook Press ga qaraganda juda ko'p materiallar bepul taqdim qilinadi.

SoftBook Reader singari NuvoMedia mahsuloti ham Open eBook spetsifikatsiyalarini qabul qilgan, ya'ni matnga oq-qora rasmlarni, jadvallarni, diagrammalarni, fotosuratlarini kiritish imkoniyatiga ega. Foydalanuvchi o'z elektron kitobini yaratmoqchi bo'lsa u, RocketWriter dan foydalanadi. Uning funksional imkoniyatlari SoftBook Press Personal Publisher ning imkoniyatlariga o'xshash. Bundan tashqari Rocket eBook ning RS emulyatorini kompaniyaning saytidan yuklash mumkin. +urilmani yaratuvchilar kelgusida elektron kitobni rangli monitor va USB port bilan ishlaydigan qilish niyatidalar.

Albatta, SoftBook Reader va Rocket eBook elektron kitoblar bu sohadagi dastlabki qaldirg'ochlardir. Elektron kitoblarning nisbatan qimmatligi va ularning o'zbek va rus tillarda deyarli yo'qligi respublikamizda bunday texnika mo'jizasining keng tarqalishiga imkon bermaydi.

Elektron kitoblar qog'oz kitoblarni siqib chiqaradimi? - buni hayot ko'rsatadi. Kitobxonlarning ko'pchiligi monitor orqali o'qishni yoqtirishmaydi, elektron kitoblar nisbatan qimmat. Ammo analitiklarning fikriga ko'ra, 21-asrda nashrlarning 90% elektron shaklda tarqalar ekan.

Nazorat savollari

1. Axborot kutubxona muassasalarinning axborot ta'minoti nima?
2. Axborot kutubxona muassasalarinning axborot tuzilmasi?
3. Ma'lumotlar bazasida elektron kitoblarning qaydan ma'lumotlari saqlanadi.
4. Tashqi axborot ta'minoti nima?
5. Ichki axborot ta'minoti nima?
6. Ma'lumotlarni takrorlanishini oldini olishda qanday chora tadbirlar ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.

2. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)
3. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
4. <http://WWW.rocket-library.com/>
5. http://en.wikipedia.org/wiki/List_of_libraries

Nazorat savollari

1. Elektron kutubxona nima?
2. Elektron kutubxona tushunchasi va uni yaratish texnologiyasi.?
3. Elektron katalog nima?
4. Axborot-kutubxona fondi nima?
5. Axborot-kutubxona resursi nima?
6. Axborot-kutubxona faoliyati nima?
7. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish nima?
8. Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari
9. Axborot-kutubxona fondi qanday jamlanadi
10. O'zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonuni qachon qabul qilingan.
11. Texnik ta'minot nima va unga nimalar kiradi?
12. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti nima?
13. Axborot-kutubxona muassasasining axboroty ta'minoti nima?
14. Axborot-kutubxona muassasasining tashkiliy ta'minoti nima?
15. Qanday avtomatlashtirilgan ish joylari mavjud?
16. Axborot-kutubxona muassasasining texnik ta'minotiga nima?
17. Qanday qurilmalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin?
18. RFID qanday texnologiya?
19. RFID va Shtrix kod texnologiyalarini taqqoslang?
20. RFID texnologiyasi bilan ishlaydigan qanday qurilmalarni bilasiz?
21. Axborot-kutubxona muassasasining dasturiy ta'minoti nima?
22. AKM lar uchun qanday milliy dasturiy ta'minotlarni bilasiz?
23. AKM lar uchun ochiq kodli dasturiy ta'minotlar?
24. AKM larning Avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlarini sanang?
25. Dasturning informatsion-metodik ta'minoti nima?
26. Axborot kutubxona muassasalarinning axborot ta'minoti nima?
27. Axborot kutubxona muassasalarinning axborot tuzilmasi?
28. Ma'lumotlar bazasida elektron kitoblarning qaydan ma'lumotlari saqlanadi.
29. Tashqi axborot ta'minoti nima?

V. BO`LIM

KEYSLAR BANKI

V. KEYSLAR BANKI

1-Keys. Axborot-kutubxona muassasalari haqida so'z yiritildi va jahon tajribalari ham o'rganildi. Axborot-kutubxona muassasalari tuzilishi jihatdan milliy va jahon AKM lar farqini tahlil qiling.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Bunda har bir AKM holati yozib ularni guruhlariga ajratib olinadi (individual va kichik guruh bilan).
- Mavjud izlangan ma'lumotlar ma'lum bir jadvalga keltirilib bir biridan farqlari aniqlanadi.

2-Keys. Axborot-kutubxona muassasalari va Axborot resurs markazlari bir-biri bilan solishtiring va tahlil qiling.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- AKM vazifalarini va funksiyalarini jadvalga ustuniga yozib chiqing (individual va kichik guruh bilan)
- ARM vazifalarini va funksiyalarini jadvalning boshqa ustuniga yozib chiqing (individual va kichik guruh bilan).
- AKM va ARM larni vazifa va funktsiya jihatdan farqlarini belgilang.

3-Keys. Biror bir axborot-kutubxona muassasasini texnik jihatdan ta'minlash sizga topshirildi. Bunday holatda siz AKM ni jihozlashda qanday qurilmalardan foydalangan bo'lardiz.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Ishni amalga oshirishni jadval asosda izohlang. (bunda har bir tinglovchi vazifani individual bajaradi)

Muassasa turi (yoki bo'lim turi)	Texnik vosita nomi	Texnik vosita vazifasi	Texnik vositadan foydalanish maqsadi

4-Keys. Biror bir axborot-kutubxona muassasasini dasturiy jihatdan ta'minlash sizga topshirildi. Bunday holatda siz AKM ni ish faoliyatini yuritishda qanday maxsus va ommaviy dasturiy vositalardan foydalangan bo'lardiz.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Ishni amalga oshirishni jadval asosda izohlang. (bunda har bir tinglovchi

vazifani individual bajaradi)

- Tanlanayotgan dasturiy vositalar nomi va vazifalari jadvalga ketma-ket keltiriladi
- Dasturiy vositalar farqlari tahlil qilinadi va afzallik, kamchiliklari keltiriladi.

5-Keys. Biror bir axborot-kutubxona muassasasini axborot ta'minoti ko'rib chiqiladi. Bunda ko'rib chiqilayotgan AKM yoki ARM lar axborot ta'minotlari bir biri bilan taqqoslanadi va diagramma ko'rinishida natijalar olinadi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Ishni amalga oshirishni jadvalga AKM va ARM nomini yozing va Ularni fondi va ma'lumotlar bazasidagi axborot jamlanmasini son yoki axborot o'lchov birliklari asosida keltiring.(bunda har bir tinglovchi vazifani individual bajaradi);
- AKM yoki ARM axborot ta'minoti farqlarini tahlil qiling.

6-Keys. Biror bir axborot-kutubxona muassasasini tashkily ta'minoti ko'rib chiqiladi. Bunda ko'rib chiqilayotgan AKM yoki ARM lar tashkiliy ta'minoti bir biri bilan taqqoslanadi va tashkiliy struktura tuzilib natijaviy holatga keltiriladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Ishni amalga oshirishda AKM va ARM ni tashkil etuvchi ishchi o'rinlar yozib chiqiladi;
- Bu ishchi o'rinlarni bir- biri bilan bog'liqligi aniqladi va bo'ysunuvchaligi asosida tashkiliy struktura chizib olinadi.

VI. BO`LIM

MUSTAQIL
MAVZULARI

TA`LIM

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Axborot-kutubxona tizimlari uchun maxsus dasturiy vositalar tahlili.
2. Axborot-kutubxona tizimlarida avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlarini o'rganib chiqish (administrator, kitobxon, kitob beruvchi, butlovchi).
3. Axborot-kutubxona muassasalarining tarkibiy xarakteristikasi.
4. Axborot-kutubxona tipologiyasining mazmuni va mezonlari.
5. Axborot-kutubxonashunoslik metodologiyasi.
6. Axborot-kutubxona markazlarida kitoblar xavfsizligini ta'minlash.
7. O'zbekistonda AKM, ARM va kutubxonalarning ijtimoiy funksiyasining kontsepsiyasi.
8. Axborot-kutubxona muassasasi uchun ma'lumotlar bazasini yaratish.

VII. BO`LIM

GLOSSARIY

VII. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Muallif	Biror bir hujjat, adabiyot yoki kitob, arborot resursini yaratuvchi shaxs	(Author). The person(s) or organization(s) that wrote or compiled a document.
Bibliografiya	matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi	(Bibliography) A list of citations or references to books or periodical articles on a particular topic. Bibliographies can appear at the end of a book, journal, or encyclopedia article, or in a separate publication.
Katalog	Biror kitob bibliografik elementlari yozilgan qog'oz varaqa.	(Catalog) A database (either online or on paper cards) listing and describing the books, journals, government documents, audiovisual and other materials held by a library. Various search terms allow you to look for items in the catalog.
Ma'lumotlar bazasi	Kompyuter doimiy hotirasida to'plangan elektron ma'lumotlar	(Database) A collection of information stored in an electronic format that can be searched by a computer.
E-book (or Electronic book)	Elektron kitoblar	An electronic version of a book that can be read on a computer or mobile device.
Online Public Access Catalog (OPAC)	Ochiq tizimli online katalog.	A computerized database that can be searched in various ways- such as by keyword, author, title, subject, or call number-to find out what resources a library owns. OPAC's will

		supply listings of the title, call number, author, location, and description of any items matching one's search. Also referred to as "library catalog" or "online catalog."
Annotatsiya	nashrning ma'nosi nuqtai nazaridan, maqsadi, shakli va boshqa uziga xos jixatlari buyicha qisqacha tavsifi.	(Annotation) A note accompanying an entry in a bibliography, reading list, or catalog intended to describe, explain, or evaluate the publication referred to
Arxivlar	Tarixiy xujjatlar, biror joy to'g'risidagi saqlangan yozma va hujjat ma'lumotlar	(Archives) Public records or historical documents, or the place where such records and documents are kept.
Shtrix kod	14 ta raqamdan iborat kod bo'lib, mahsulotning qaysi davlat, qaysi korxonadan tomonidan ishlab chiqarilganligi haqida ma'lumot beradi.	(barcode number) The 14-digit number appearing beneath the barcode found on the back on a book. Barcode numbers are used to charge, discharge, and renew books on the online computer system.
Bibliografik ishora	Kitob yoki maqolalarning oxida keldiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar to'g'risidagi bibliografik ma'lumotlar.	(bibliographic citations) The information which identifies a book or article. Information for a book usually includes the author, title, publisher, and date. The citation for an article includes the author, title of the article, title of the periodical, volume, pages, and date.

Bibliografik yozuv	Bibliografik ma'lumotlar bazasida ma'lum bir ob'ektni tasvirlangan axborot maydoni	(bibliographic record) The unit of information fields (e.g. title, author, publication date, etc.) which describe and identify a specific item in a bibliographic database.
To'liq matn (TM)	Kitobning elektron ko'rinishidagi tizimlashtirilgan shakli	(Fulltext) Some of the article databases available from the Illinois library offer full text electronic access to a wide range of articles.
ISBN (International Standard Book Number)	Kitoblarning xalqaro standart raqami	A four-part, ten-character code given a book (a non-serial literary publication) before publication as a means of identifying it concisely, uniquely, and unambiguously. The four parts of the ISBN are: group identifier (e.g., national, geographic, language, or other convenient group), publisher identifier, title identifier, and check digit. (ALA Glossary)
ISSN (International Standard Serial Number)	Davriy nashrlarning xalqaro standart serial raqami	The international numerical code that identifies concisely, uniquely, and unambiguously a serial publication.(ALA Glossary)
MARC format	MARC (Mashina o'qiy oladigan kataloglash tili) kataloglashtirish xalqaro standart formati	MARC (Machine-readable Cataloging) An international standard format for the arrangement of cataloging information so that it can be stored and retrieved using

		computer tapes.
OCLC (Online Computer Library Center)	On-line electron-kutubona kutubxona markazi bo'lib, yig'ma electron katalog hisoblanadi. Masofadan shu ma'lumotlar bazasiga murojaat qilishimiz mumkin	A bibliographic network based on an online database of approximately 28 million cataloging records from its 5500 members, including those of Illinois Library since 1975. It now serves more than 18,000 libraries in 52 countries. The OCLC database is used for cataloging, for reference work, and for interlibrary loan. It is the world's largest and most comprehensive database of bibliographic information.

VIII. BO`LIM

ADABIYOTLAR
RO`YXATI

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Maxsus adabiyotlar.

1. “Fundamentals of Library and Informational science”, by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
2. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011)

Internet resurslar

1. http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science
2. <http://WWW.rocket-library.com/>
3. http://en.wikipedia.org/wiki/List_of_libraries

EXPERT CONCLUSION

TO THE EDUCATIONAL-METHODOLOGICAL COMPLEX FOR THE COURSE OF RETRAINING PEDAGOGUE CADRES OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS IN THE DIRECTION OF “INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES”

These educational-methodological complexes were developed in accordance with defined requirements.

It consists of the: syllabus; theoretical and practical materials; assessment; presentations on every topic; glossary; tests; list of references.

The syllabus is written correctly. The sequence of topics proposed for study, focused on high-quality learning. Calendar-thematic plan corresponds to its content of the working program on discipline. Tests vary, allow to adequately assess the level of listeners' knowledge on the subject. Methodical recommendations for practical exercises provide the formation of basic skills to carry out research in the process of scientific knowledge and the theoretical foundation of professional tasks.

Presentation for lecture material is accurate and specific, it promotes better assimilation of discipline. The presented educational-methodical complexes in the direction of "Informatics and information technologies" informative, has a practical orientation, includes a sufficient number of diverse elements aimed at developing the mental and creative abilities of listeners.

In the content of the educational-methodological complexes, prospects for the development of computer science and information technologies as well as reforms and foreign experience in the field of information and communication technologies in the Republic of Uzbekistan have been taken into consideration and actual topics have been added.

Assignments of assessment are composed in the form of collection of cases.

Glossary includes reviews (components) in both Uzbek and English languages.

As the educational-methodological complexes is useful for learners in the direction of “Informatics and information technologies” it totally matches with the requirements of the course of teacher training and retraining and it is expedient to be used in education process.

Vice rector of ICT, TULIT



Chul Soo LEE